Xalq sözi

Özbekiston – kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRIŞ VA JAMIYATNI YUKSALTIRIŞ YILI

1991-yil 1-yanvardan çiqa boşlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 11-noyabr, № 237-238 (9408-9409) Çorşanba

Saytimizga ötish uçun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

ANTALIYA SAMMITI DOIRASIDAGI SAMARALI MULOQOTLAR

Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdoğanning taklifiga binoan Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyev 10-noyabr kuni rafiqasi bilan birga amaliy taşrif bilan Antaliya şahriga keldi.



Xalqaro aeroportda davlatimiz rahbarini Turkiy davlatlar taşkiloti Oqsoqollar kengaşi raisi Binali Yildirim va Turkiyaning rasmiy şaxslari kutib oldi.

Antaliya şahrida bölib ötayotgan BMTning Iqlim özgarişi böyiça konferensiyasining 31-sessiyasi doirasida Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyev özi uçun ajratilgan qarorgohda Yaşil iqlim fondi ijroçi direktori Mafalda Duarte bilan uçraşuv ötkazdi.

Muloqot çoğida iqlim özgarişiga moslaşiş borasidagi hamkorlikni yanada kengaytiriş hamda iqlim moliyasi mablağlarini jalb etiş masalalari körib çiqildi.

Jamğarma bilan şeriklik aloqalari mustahkamlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Qöşma loyihalar portfeli 200 million dollardan oşdi.

Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyoda iqlim özgarişiga çidamli landşaftlarni yaratiş böyiça mintaqaviy dastur ma'qullanganini olqişladi.

Davlatimiz rahbari Yevropa tiklaniş va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso bilan ham uçraşuv ötkazdi.

Muloqot çoğida uşbu yetakçi moliyaviy institut bilan strategik şeriklikni yanada kengaytirişning amaliy jihatlari körib çiqildi.

Özbekiston olti yildan buyon YTTBning mintaqadagi eng yirik moliyaviy hamkori bölib kelmoqda. Loyihalar portfeli 7 milliard dollardan, 2025-yilda amaliyotlar hajmi ilk bor 1 milliard dollardan oşdi.

Bankning "yaşil iqtisodiyot"ni rivojlantirişga qöşayotgan hissasi yuqori baholandi. Uning mamlakatimizga kiritgan sarmoyalarining qariyb 60 foizi uşbu yönalişdagi loyihalar hissasiga töğri keladi.

Kelgusi yil uçun hamkorlikning elektr infratuzilmasini modernizatsiya qiliş, qişloq xöjaligi va oziq-ovqat tarmoqlarini rivojlantiriş, bank sohasida xususiylaştirişni amalga oşiriş, Toşkent xalqaro moliya markazini işga tuşiriş hamda davlat-xususiy şeriklik loyihalarini ilgari suriş kabi ustuvor yönalişlari belgilab olindi.

Mamlakatimiz moliya institutlarining fond resurslaridan töğridan-töğri foydalaniş imkoniyatini ta'minlaş, Özbekistonda iqlimga oid, şu jumladan, Orolböyini ekologik jihatdan tiklaş hamda "yaşil" şaharlarni rivojlantirişga qaratilgan keng kölamli investitsiya dasturini şakllantiriş muhimligi ta'kidlandi.

Uçraşuv yakunida şeriklikni mustahkamlaş va yangi qöşma loyihalarni amalga oşirişga kelişib olindi.

2027-yilda Xorijlik investorlar kengaşining navbatdagi yiğilişini ötkazişga tayyorgarlik köriş masalalari ham muhokama qilindi.

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyev Jahon meteorologiya taşkiloti boş kotibi Selesta Saulo bilan uçraşuv ötkazdi.

Suhbatda iqlim özgarişini monitoring qiliş, ekstremal ob-havo hodisalariga nisbatan bardoşlilikni oşiriş hamda ekologik vaziyatni yaxşilaş borasidagi hamkorlikni rivojlantiriş istiqbollari muhokama qilindi.

JMT bilan gidrometeorologiya infratuzilmasini modernizatsiya qiliş, ob-havoni kuzatiş tizimlarini takomillaştiriş, ma'lumot almaşiş kabi yönalişlarda köp yildan buyon samarali hamkorlik qilib kelinayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Atmosfera monitoringi, qum va çang böronlarini prognoz qiliş hamda havo sifatini ta'minlaş sohalarida hamkorlikni yanada mustahkamlaş muhimligi ta'kidlandi.

Yakunda iqlim kun tartibining ustuvor yönalişlari böyiça amaliy şeriklikni kengaytiriş va qöşma taşabbuslarni amalga oşirişga tayyorlik bildirildi.

Söng Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyev Gruziya Prezidenti Mixail Kavelaşvili bilan uçraşuv ötkazdi.

Özbekiston – Gruziya strategik şeriklik munosabatlarini yanada kengaytirişning dolzarb masalalari körib çiqildi.

Joriy yilning 2-3-iyul kunlari Özbekiston Respublikasi Prezidentining Gruziyaga davlat taşrifi yakunlari böyiça erişilgan kelişuvlarni amalga oşirişga alohida e'tibor qaratildi.

Ikki mamlakat parlamentlari, vazirliklari, idoralari va işbilarmon doiralari örtasidagi aloqalar faollaşgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Özaro tovar ayirboşlaş hajmi va qöşma korxonalar soni izçil ortib bormoqda. Mamlakatimizda gruziyalik investorlar iştirokida taşkil etilgan raqamli bank faoliyat yuritmoqda.

Tovar ayirboşlaş hajmini köpaytiriş, sanoat kooperatsiyasini ilgari suriş, turizmni rivojlantiriş, transport-tranzit salohiyatidan samarali foydalaniş hamda ikki mamlakat hududlarini iqtisodiy hamkorlikka keng jalb etiş böyiça muvofiqlaştirilgan çora-tadbirlarni qabul qiliş muhimligi ta'kidlandi.

Şu kuni Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni Podşohligining energetika vaziri hamda sanoat va mineral resurslar vaziri şahzoda Abdulaziz bin Salmon Ol Saud boşçiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uçraşuv avvalida vazir mamlakatimiz yetakçisiga Podşoh Salmon bin Abdulaziz Ol Saud va Valiahd, Boş vazir Muhammad bin Salmon Ol Saudning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Özbekiston va Saudiya Arabistoni köp qirrali hamkorligi hamda keng kölamli şerikligini yanada kengaytiriş masalalari muhokama qilindi.

Muloqot çoğida sönggi yillarda aloqalar jadal rivojlanib, yirik loyihalar portfeli şakllangani, şundan asosiy qismi "yaşil" energetika tarmoğiga töğri kelayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Uçraşuvda neft-gaz, neft-kimyo, toğ-kon sanoati va boşqa ustuvor yönalişlarda hamkorlikni yangi bosqiçga kötariş, aniq amaliy takliflarni işlab çiqişga alohida e'tibor qaratildi.

11-noyabr kuni mamlakatimiz yetakçisi BMTning Iqlim özgarişi böyiça konferensiyasining yalpi sessiyasida iştirok etadi.

ÖzA.

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

11-noyabr – Özbekiston kasaba uyuşmalari kuni

INSON QADRI VA IJTIMOIY ADOLAT YÖLIDAGI SA'Y-HARAKATLAR

Ayni kunlarda mamlakatimiz böylab 11-noyabr – Özbekiston kasaba uyuşmalari kuni munosabati bilan qator ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ijtimoiy loyihalar va bayram uçraşuvlari bölib ötmoqda. Poytaxtimizda uyuştirilgan ana şunday tadbirlardan birida kasaba uyuşmalari tizimida amalga oşirilgan turli ijtimoiy loyihalar hamda taşkil etilgan tanlovlar ğoliblari taqdirlandi.

Tantanali tadbirda Özbekiston kasaba uyuşmalari Federatsiyasi, uning hududiy kengaşlari, tarmoq kasaba uyuşmalari Respublika kengaşlari, tasarrufdagi taşkilotlar mutasaddilari, mamlakatimiz viloyatlaridan taşrif buyurgan kasaba uyuşma faollari qatnaşdi.

Tadbir avvalida Özbekiston kasaba uyuşmalari Federatsiyasi raisi Q. Rafiqov iştirokçilarni bayram bilan qutlab, bugun xalqimizning öz kuçi, imkoniyati, tarixi hamda buyuk kelajagiga işonçi, qolaversa, inson qadrini uluğlaş yölidagi xalqparvar siyosatini butun dunyo körib va tan olib turganini alohida ta'kidladi.

Ayni vaqtda mamlakatimizda amalga oşirilayotgan ezgu islohotlar zamirida odamlarning hayotidan rozi bölib yaşaşi uçun munosib şaroit yaratiş maqsadi mujassam ekanini, bu ezgu niyat, ayniqsa, mehnat sohasida amalga oşirilayotgan islohotlarda yaqqol namoyon bölayotganini qayd etdi. Inson qadrini uluğlaş, uning mehnat huquqlarini işonçli himoya qiliş, munosib mehnat şaroitlarini yaratiş va daromad topişiga kömaklaşiş Yangi Özbekiston islohotlarining eng muhim yönalişlaridan biri ekaniga alohida urğu berildi.

Aytiş joizki, bugungi kunda Özbekiston kasaba uyuşmalari Federatsiyasi 8 milliondan ortiq a'zolarni öz saflarida birlaştirgan. Bu katta imkoniyat bölişi bilan birga soha mutasaddilari zimmasiga ulkan mas'uliyat ham yuklaydi.

➡ 4

Özbekiston – Koreya:

STRATEGIK ŞERIKLIK KENGAYMOQDA

Avval xabar qilganimizdek, Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boşçiligidagi Özbekiston parlament delegatsiyasi Koreya Respublikasida bölib turibdi.

Uçraşuv

Taşrif doirasida Özbekiston delegatsiyasi keça Koreya Respublikasi Prezidenti Li Çje Myon bilan uçraşdi.

Muloqot avvalida Senat Raisi Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasi Prezidentiga samimiy va ezgu tilaklarini yetkazdi.

Ikki mamlakat örtasidagi alohida strategik şeriklik munosabatlarini yanada mustahkamlaş, parlamentlararo aloqalarni rivojlantiriş va hamkorlikni yanada faollaştiriş masalalari muhokama qilindi. Ayniqsa, oliy darajadagi kelişuvlar ijrosini qonunçilik nuqtai nazaridan qöllab-quvvatlaş hamda parlament nazoratini kuçaytiriş jihatlariga urğu berildi.

Şuningdek, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va texnologik hamkorlikni kengaytiriş yuzasidan ham fikr almaşildi. Xususan, qiymati qariyb 12 milliard AQŞ dollarini taşkil etgan istiqbolli loyihalarni amalga oşiriş, sanoat kooperatsiyasi va ilğor texnologiyalarni joriy etiş, hududlararo aloqalarni rivojlantiriş muhimligi ta'kidlandi.

Ta'lim, soğliqni saqlaş, ilm-fan, kadrlar tayyorlaş va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni rivojlantiriş, Koreya Respublikasida mehnat qilayotgan va tahsil olayotgan Özbekiston fuqarolari uçun munosib şaroitlar yaratiş masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Senat Raisi Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasining Madaniyat, sport va turizm qömitasi raisi, "Koreya – Özbekiston" parlamentlararo hamkorlik guruhi raisi Kim Gyo Xon bilan ham uçraşdi.

Muloqot davomida Özbekiston va Koreya örtasida parlamentlararo hamkorlikni kengaytiriş, oliy darajada erişilgan kelişuvlarning amaliy ijrosini ta'minlaş masalalari muhokama etildi.

Ta'kidlanganidek, ikki mamlakat örtasidagi hamkorlik guruhlari faoliyati izçil rivojlanib, parlament qömitalari darajasida muloqot ötkaziş va özaro tajriba almaşiş imkoniyatlari kengaymoqda.

➡ 2

Oliy Majlis Qonunçilik palatasida



MUSTAHKAM HUQUQIY ASOSLARGA TAYANGAN ISLOHOTLAR

Oliy Majlis Qonunçilik palatasining navbatdagi majlisi bölib ötdi. Unda köp kvartirali uylar va boşqa köçmas mulk obyektini uluş kiritiş asosida quriş sohasini hamda yaylovlardan foydalaniş borasidagi munosabatlarni tartibga soliş, Şaharsozlik kodeksiga qöşimça va özgartirişlar kiritiş, migratsiya va personallaştiriş faoliyatini takomillaştirişga qaratilgan qonun loyihalari, şuningdek, parlament nazorati faoliyatiga oid masalalar muhokama qilindi. Kun tartibidagi uşbu masalalar siyosiy partiyalar fraksiyalarida, mas'ul qömitalar, işçi guruh yiğilişlarida ekspertlar, tegişli vazirlik hamda idoralar mutaxassislari iştirokida atrofliça muhokama qilingani qayd etildi.

➡ 3

Konstitutsiya:



ERKIN HAYOT VA YORQIN KELAJAK KAFOLATI

"Kun kunga öxşamas", deydi xalqimiz. Ötayotgan har bir kun jonajon Özbekistonimiz solnomasini yangi sahifalar bilan boyitmoqda. Keçagina paxtakorlarimiz erişgan beqiyos yutuqlardan quvongan bölsak, tez orada jamiyatimiz taraqqiyotining huquqiy tayançi – Konstitutsiya qabul qilingan kun yurtimizda keng nişonlanadi.

Prezidentimizning şu yil 6-noyabrdagi "Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik köriş va uni ötkaziş töğrisida"gi farmoyişida bu yilgi bayram tadbirlari "Konstitutsiya – inson qadri uluğlangan erkin hayot va yangi kelajak poydevori" degan boş ğoya asosida nişonlanişi belgilangani bejiz emas.

Bugun rahbardan tortib oddiy işçi-yu mexanizator, hunar egasi-yu ziyolidan sörang, öz hayotidan tölqinlanib sözlaydi. Islohotlar kölami turmuşida, oilasi, mahallasi keçmişida neçoğli özgarişlar yasaganini aniq misollar bilan hikoya qiladi. Çunki elimiz Boş qomusimiz tufayli öz qadrini tikladi, huquq va manfaatlari kafolatiga ega böldi. Ozod yaşaş, soğligini tiklaş, ta'lim oliş, xohlagan diniga e'tiqod qiliş, öz fikrini emin-erkin bildiriş imkoniyati har bir insonning baxt-saodatga erişişiga zamin yaratmoqda.

"Xalq deydiki..." sahifasidagi yurtdoşlarimizning muşohadalari, mulohazalari, talqin va tahlillari aynan şu haqda.

6-sahifaga qarang.

Özbekiston – Koreya:

STRATEGIK ŞERIKLIK KENGAYMOQDA

1 Muloqot çoğida Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) kömagida Oliy Majlis palatalarida amalga oşirilayotgan “Elektron parlament” loyihasiga alohida urğu qaratildi. Mazkur loyiha doirasida parlament faoliyatini raqamlaştiriş, mahalliy Kengaşlar bilan elektron hamkorlikni rivojlantiriş, zamonaviy texnologiyalar, jumladan, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalaniş istiqbollari muhokama qilindi.

Öz navbatida, madaniyat, turizm va sport sohalaridagi hamkorlikni kengaytiriş, hududlar örtasida töğridan-töğri aloqalarni rivojlantiriş, yoş parlament a’zolari örtasida tajriba almaşiş va qöşma taşabbuslarni ilgari suriş masalalari yuzasidan fikr almaşildi.

Uçraşuvda 2027-yilda ikki mamlakat örtasida diplomatik munosabatlar örnatilganining 35 yilligi hamda koreys diasporasining Özbekistonda istiqomat qilayotganiga 90 yil tölişi munosabati bilan qöşma parlament tadbirlarini taşkil qiliş muhimligi qayd etildi.

QÖŞMA TEXNOLOGIK LOYIHALAR DIQQAT-E’TIBORDA

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boşçiligidagi Özbekiston parlament delegatsiyasi Koreya Respublikasidagi rasmiy tadbirlar doirasida qator uçraşuvlar ötkazdi.

Hamkorlik

Delegatsiya a’zolarining şunday muloqotlaridan biri “Seoul Startup Hub Gongdeok” startap loyihalarni qöllab-quvvatlaş markazi rahbari Kim Çon U bilan bölib ötdi. Unda startap-ekotizimni rivojlantiriş, innovatsion loyihalarni qöllab-quvvatlaş va texnologik kompaniyalar örtasidagi hamkorlikni kengaytiriş masalalari muhokama qilindi.

Kim Çon U Özbekistonda IT sohasini rivojlantiriş uçun yaratilgan qulay şart-şaroitlarni, malakali mutaxassislar salohiyatini, xorijiy startaplar uçun soddalaştirilgan viza tartiblari va institutsional qöllab-quvvatlaş mexanizmlarini yuqori baholadi.

Muloqotda ikki mamlakat texnologik kompaniyalari örtasida amaliy hamkorlikni kengaytiriş uçun mavjud imkoniyatlar xususida ham fikr almaşildi. Xususan, Janubiy Koreya startaplarini Özbekistonga jalb etiş, qöşma texnologik loyihalarni amalga oşiriş, innovatsion işlanmalarni tijoratlaştiriş hamda mamlakatimizni Markaziy Osiyo bozoriga çiqiş uçun mintaqaviy platforma sifatida rivojlantiriş istiqbollariga e’tibor qaratildi.

Şuningdek, Özbekiston vakillarini markazning xalqaro dasturlariga keng jalb qiliş, yirik biznes va startap loyihalar örtasida “Open Innovation” tamoyili asosida hamkorlikni yölga qöyiş, şuningdek, ikki mamlakat startaplarining Özbekistondagi “Land of Startups” va Janubiy Koreyadagi “Try Everything” tanlovlarida iştirokini ta’minlaş böyiça takliflar bildirildi.

«Xalq sözi».

DEPUTAT MAQOMI – JAMIYAT MEZONI

Deputatning jamiyat oldidagi burç va vazifasi haqida hammamiz yaxşi bilamiz. Lekin mening nazarimda, deputatning maqomi jamiyat taraqqiyotini körsatuvçi va kelajagini belgilovçi mezon hisoblanadi. Negaki, u – xalq vakili, uni saylovçilar öz nuqtai nazarlariga mos bölganligi uçun tanlaşgan. Deputat siyosiy partiyalarning hokimiyat uçun kuraşişi jarayonida xalqning irodasini ifodalaydi, partiya nizomidagi ğoyalarning amaliyoti uçun kuraşadi. U xalq bilan davlat örtasida mustahkam köprik vazifasini ötaydi.

Mahalliy Kengaşlarda

Ana şu nuqtai nazardan qaraydigan bölsak, Özbekistondagi demokratik islohotlar xuddi şu maqsadning amalga oşirilişiga yönaltirilgan. Bosqiçma-bosqiç röyobga çiqayotgan yangilanişlar, tabiiyki, deputatning ham, saylovçining ham nuqtai nazarini özgartirmoqda. Buni viloyatimiz mahalliy Kengaşlari faoliyati misolida ham köriş mumkin.

Xususan, yil boşidan buyon xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengaşining 14 ta sessiyasi ötkazilib, 214 ta qaror qabul qilindi. Kengaşdagi doimiy komissiyalarning 58 ta yiğilişida 228 ta masala körib çiqildi.

Davlatimiz rahbari qaysi viloyatga taşrif buyurmasin, albatta, deputatlar bilan muloqot qilişi, ularning fikrlarini inobatga olişi siyosiy islohotlarga özgaça jöşqinlik bağişlayotir. U kişining taşabbusi bilan mahalliy Kengaşlar mustaqilligini ta’minlaş esa faoliyatimizni yangi bosqiçga olib çiqdi, desak, xato bölmaydi. Çunki bunda yillar davomida taraqqiyotimizga töğonoq bölib kelgan tösiqlarga barham berildi. Mahalliy Kengaşlar va ijro hokimiyati vakolatlari, vazifalari qonun yöli bilan normaga kiritildi. Mahalliy Kengaş raisi, uning örinbosari, xodimlari ştatlari joriy qilindi, alohida binolar ajratildi. Qisqaça aytganda, mahalliy



Kengaşlar mustaqil siyosiy kuç sifatida maydonga çiqdi. Ana şu imkoniyat ularning hududda yillar davomida töplanib qolgan va bugungi kunda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etişdagi faolligini kuçaytirdi. Binobarin, bugun mahalliy Kengaşlar – çinakam muloqot maydoni. Ular deputatlar faoliyatini taşkil etadi, monitoring ötkazadi, loyihalar ijrosini örganişda siyosiy partiyalar deputatlik guruhlari bilan hamkorlik qiladi.

Mahalliy Kengaş sessiyalari endilikda töğridan-töğri saylovçilarga namoyiş etilmoqda. Doimiy komissiyalardagi muhokamalarda jamoatçilik vakillari, soha xodimlari ham qatnaşadi. Har bir ijro hokimiyati rahbari deputatlar oldida öz sohasiga oid loyihalar ijrosi yuzasidan hisob berib boradi. Şu yilning özida sessiyalarimizda 20 dan ziyod taşkilotlar rahbarlarining hisobotlari eşitildi. Muhokamalar jiddiy tus oladi. Deputatlar öz saylov okruglaridagi muammolarni oçiq-oydin aytmoqda, unga aniq javob söraşadi. Ma’lumot uçun aytsak, ikkita taşkilot rahbarining hisobotini eşitiş jarayonida ular sessiyaga yaxşi tayyorgarlik körib kelmagani uçun qabul qilinmadi. Bu holat ham ijro hokimiyati rahbarlarining mas’uliyatini oşiradi.

Deputatlik sörovlari masalasida ham yangiça tasavvurlar şakllandi. Xususan, deputatlik sörovi ijrosi ta’minlanmaganda bu holatga nisbatan javobgarlikning belgilanişi uning maqomiga yaxşi ta’sir qildi. Joriy yilning özida viloyat Kengaşi vakillari tomonidan 419 ta deputatlik sörovi yuborildi, 100 ta örganiş va 115 ta nazorat-tahlil faoliyati amalga oşirildi. Yuborilayotgan deputatlik sörovlariga öz vaqtida javob olyapmiz, muammolar yeçim topyapti. Deputatlarimiz taşabbusli byudjet harakatida eng yaqin maslahatçiga aylangan. Bundan taşqari, hududlarni obod qilişga doir loyihalarning taşabbuskorlari bölmoqdalar. Ularning harakati bilan joylarda turli dasturlar amalga oşirilayotir.

Darvoqe, yana bir masala. Ikki yildan buyon xalq deputatlari viloyat Kengaşi deputatlari tomonidan öz saylov okrugi hududidagi va saylovçilarini qiynab kelayotgan muammolarni hal etişga yönaltiriş maqsadida mahalliy byudjetdan ikki milliard söm mablağ ajratilmoqda. Deputatlar bu pulni köpçilikning e’tiboridan qolgan yoxud muolajasi, jarrohligi öta muhim bölgan bemorlar salomatligini tiklaşga yönaltirmoqda. Birgina joriy yilda xalq deputatlari viloyat Kengaşi deputatlari sörovi va tavsiyasi asosida 100 nafar bemorda yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari bajarildi.

Xalq deputatlari viloyat Kengaşi kotibiyati taşabbusi bilan “Deputatlar minbari” körsatuvi taşkil etildi va har hafta viloyat televideniyesida, ijtimoiy tarmoqlarda namoyiş qilinyapti. Bu körsatuv mahalliy Kengaşlar deputatlari uçun çinakam minbarga aylanib, ular nafaqat deputatlik faoliyati haqida ma’lumot bermoqda, balki jamiyat hayotidagi muhim masalalarga ham munosabatini bildirmoqda, muammolarni qayd etib, ularning yeçimini taklif qilmoqda.

Deputatlarimiz joylarda ma’rifiy markazlar, kutubxonalar oçilişiga ham boş-qoş bölmoqda. Darvoqe, viloyat Kengaşi deputatlari ijtimoiy tarmoqdagi maxsus muloqot guruhida deputatlik sörovlari, sessiya qarorlari ijrosi yoki yuzaga kelgan muammolar körsatib boriladi. Ana şu ma’lumotlar asosida köplab taşkilotlar rahbarlari faoliyatiga baho beriladi.

Keyingi paytlarda siyosiy partiyalar deputatlik guruhlarining ham faolligi oşdi. Ilgari ular u yoki bu idora rahbarining axborotini eşitgan, xolos. Endilikda siyosiy partiyalar viloyat Kengaşlarida, deputatlik guruhlarida aniq loyihalar, dasturlar ijrosi yuzasidan hisobotlar eşitilyapti. Hisobotdan oldin işçi guruh ana şu loyiha ijrosini bevosita örganib qaytyapti. Natijada muhokama xulosasi doimiy komissiyalar yoki sessiya kun tartibiga qöyilmoqda. Şuningdek, ular tomonidan yil yakuniga köra eng faol deputatlar aniqlanişi, rağbatlantirilişi, aksinça, köngildagidek işlamagan deputatlarning körsatib ötilişi faoliyatimizning jonlanişiga sabab bölayotir.

Mahalliy Kengaşlar bugun mintaqalarda faol siyosiy kuçga aylandi. Yangi Özbekistonni barpo etiş yölidagi dolzarb loyihalarda qatnaşmoqda. Xorijlik ekspertlar ham Samarqandga taşrifi çoğida bunday jarayon bilan yaqindan tanişib, Özbekistondagi demokratik taraqqiyotga munosib baho bermoqda.

Farmon TOŞEV,
xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengaşi deputati.

Yalpi majlisda muhokama qilingan

TÖKINÇILIK ORTIDAGI MAS’ULIYAT

Oliy Majlis Senati yalpi majlislarida muhokama qilingan qonunlarning mazmun-mohiyati bir-biridan farq qilsa-da, ularni yagona bir nuqta birlaştiradi: barça qonunlar inson va uning soğligi, haq-huquqlari bilan boğliq.

Deylik, dökon peştaxtasida turgan bir mahsulotning xavfsizligi, çorvada tarqalişi mumkin bölgan kasallikning oldini oliş yoki ariq va kanallarga oqizilayotgan suvning holati bir-biriga aloqador bölmagan masalalardek körinadi. Aslida esa ularning barçasi inson hayoti va salomatligi, atrof-muhit hamda jamiyat xavfsizligi bilan bevosita boğliq.

Senatning 20-yalpi majlisida muhokama qilingan qonunlar ana şu mas’uliyat zanjirining turli böğinlarini aniqlaştirişga qaratilgani bilan ahamiyatli.

Oziq-ovqat xavfsizligi masalasining eng muhim jihati – uning inson hayotiga bevosita ta’siri. “Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi töğrisida”gi qonunni muhokama qiliş jarayonida qayd etilganidek, iqlim özgarişi, suv tanqisligi, qurğoqçilik, çöllaniş va yerlarning degradatsiyasi oziq-ovqat yetiştiriş jarayonini tobora murakkablaştirmoqda. Şu şaroitda oziq-ovqat xavfsizligiga faqat mahsulotni tayyorlaş yoki uni savdo rastasiga çiqariş nuqtai nazaridan qaraş kifoya emas. Xomaşyoni yetiştirişdan tortib qayta işlaş, saqlaş, taşiş va iste’molçiga yetkazişgaça bölgan butun zanjir nazoratda bölişi kerak.

Ma’qullangan qonunning muhim jihatlaridan biri ham şunda. Unda xavflarni tahlil qiliş va kritik nazorat nuqtalari tizimi asosida doimiy tartiblarni işlab çiqiş, joriy etiş va qöllaş talablari nazarda tutilmoqda.

Bu yerdagi e’tiborli nuqta nazorat huquqbuzarlik sodir bölgandan keyin emas, xavf paydo bölişidan oldin boşlanişi kerakligidir. Çunki xavfli mahsulot bozorga çiqib bölganidan keyin uni aniqlaş, musodara qiliş yoki jarima soliş muammoning oqibati bilan kuraşiş hisoblanadi. Asosiy maqsad esa xavfning paydo bölişiga yöl qöymaslik.

Iste’molçi uçun öta oddiy, ammo eng muhim kafolatlardan biri – mahsulotda işlab çiqarilgan sana va yaroqlilik muddatining körsatilgani. Ayrim savdo nuqtalarida inson salomatligiga töğridan-töğri ta’sir etuvçi, işlab çiqarilgan sanasi va yaroqlilik muddati körsatilmagan mahsulotlar bemalol sotilayotganligi aholining haqli e’tirozlariga sabab bölmoqda.

Ma’lumotlarga köra, 2024-yilda yaroqlilik muddati ötgan mahsulotlar savdosi bilan boğliq 24 195 ta, 2025-yilda 25 316 ta holat qayd etilgan. 2026-yilning birinçi yarmida esa bunday holatlar 13 325 tani taşkil etmoqda, ularning 95 foizi oziq-ovqat mahsulotlariga töğri keladi. Bu raqamlarning öziyoq masalaning faqat nazorat emas, mas’uliyat muammosi ekanini körsatadi.

Amaldagi qonunçilikda bunday mahsulotlarni sotganlik uçun belgilangan ta’sir çoralari yetarli emasligi bois “Özbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik töğrisidagi kodeksiga qöşimça va özgartirişlar kiritiş haqida”gi qonun muhokamaga tortildi. Unda oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligiga oid talablarni buzganlik uçun ma’muriy javobgarlikni qayta körib çiqiş, huquqbuzarliklarni aniq tasniflaş, mahsulotni realizatsiya etganlik bilan bir qatorda uni sotiş uçun qabul qilganlik uçun ham ta’sirçan javobgarlik belgilaş, takroriy huquqbuzarliklarga nisbatan kuçaytirilgan çoralarni joriy etiş belgilandi. Ma’muriy javobgarlikni kuçaytiriş bilan birga mahsulotni sotiş uçun qabul qilgan subyektning ham mas’uliyati belgilanib, qayta sodir etilgan huquqbuzarliklar uçun yanada yuqori jarimalar nazarda tutilmoqda. Masalaning mohiyati jarima miqdorida ham emas. Asosiy masala – savdo zanjirida “men faqat qabul qildim” yoki “men faqat sotdim” degan mas’uliyatsizlikka çek qöyiş.

Oziq-ovqat xavfsizligi muammosi veterinariya nazorati bilan çambarças boğliq. Ayniqsa, hayvonlarga mansub mahsulotlar bilan boğliq xavflar öz vaqtida aniqlanmasa, uning oqibati ança ayançli bölişi mumkin.

Şu nuqtai nazardan, “Davlat veterinariya nazorati takomillaştirilişi munosabati bilan “Veterinariya töğrisida”gi Özbekiston Respublikasi Qonuniga qöşimça va özgartirişlar kiritiş haqida”gi qonunda profilaktikaga urğu berilmoqda.

Mazkur hujjatning yana bir muhim jihati – xavfni hududlar böyiça boşqariş. Ya’ni hayvonlarning yuqumli kasalliklari tarqalişining oldini oliş uçun hududlarni zonalar va kiçik hududlarga ajratiş va ularning xavfsizlik toifalarini belgilaş. Demak, veterinariya nazorati ham kasallik paydo bölgaç harakat qiladigan tizim emas, xavfni oldindan aniqlaydigan va boşqaradigan tizimga aylanişi kerak.

Yalpi majlisda muhokama qilingan muhim qonunlardan yana biri suv resurslaridan foydalaniş bilan boğliq mas’uliyatni kuçaytirişga qaratilgan.

Özbekiston şaroitida bu masalaning ahamiyatini ortiqça izohlaş şart emas. Suv tanqisligi kuçayib borayotgan şaroitda har bir kubometr suvning hisobini yuritiş, uning sifatini nazorat qiliş va ifloslaniş manbasini aniqlaş strategik vazifaga aylanmoqda.

Mamlakatimizda 174 ming kilometrlik irrigatsiya va suğoriş tarmoqlari, 144 ming kilometrlik kollektor-drenaj tarmoqlari, 74 ta suv va sel-suv ombori, 11 538 ta nasos stansiyasi hamda 100 mingdan ortiq suv oliş joylari mavjud. Bunday ulkan infratuzilmani samarali boşqariş uçun faqat “mas’ul taşkilot bor” degan umumiy yondaşuvning özi kifoya emas. Har bir obyekt, har bir jarayon va har bir vazifa uçun aniq mas’ul şaxs bölişi kerak.

“Özbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga özgartirişlar va qöşimça kiritiş töğrisida”gi qonun muhokamasida ana şu muammoga urğu berildi: amalda ayrim holatlarda huquqbuzarlik uçun bevosita mas’ul şaxs emas, balki korxona yoki taşkilotning mansabdor şaxsi javobgarlikka tortilayotgani qayd etildi. Bu esa har qanday boşqaruv tizimi uçun mas’uliyat kimning zimmasida ekani aniq bölmasa, qoidabuzarlik uçun kim javob beradi degan jiddiy savolni örtaga qöyadi.

Gap suv resurslari va undan tejab foydalaniş haqida borganda yana bir öğriqli tomon – oqova suvlar muammosi paydo böladi. Albatta, ular öz-özidan hosil bölmaydi. Unda har birimizning hissamiz bor. Qolaversa, mahsulot yaratiş evaziga iflos suvlarni çiqarayotgan korxonalar ham borki, ularning tabiatga keltirayotgan zarari ança salmoqli. Ma’lumotlarga köra, me’yordan yuqori darajada ifloslangan oqova suvlar çiqarayotgan korxonalar soni 2023-yilda 1 505 ta, 2024-yilda 1 864 ta, 2025-yilda esa 2 394 tani taşkil etgan.

Bu juda açinarli, hatto kişini qattiq taşvişga soladigan holat. Çunki sanoat korxonasi uçun oqova suv – işlab çiqariş jarayonining bir qismi. Ammo uning me’yordan ortiq ifloslanişi jamiyat uçun ekologik xavf, aholi uçun esa salomatlik muammosiga aylanadi.

Bir korxonaning tejamkorligi yoki texnologik intizomsizligi natijasida kelib çiqqan zararni butun jamiyat kötarişi adolatdan emas. Şuning uçun muhokama qilingan qonunda oqova suvlar bilan boğliq talablarni buzganlik uçun, ayniqsa, takroriy huquqbuzarliklarga nisbatan javobgarlikni kuçaytiriş közda tutilmoqda.

Bu yerda ham maqsad faqat jazolaş emas. Korxona öz faoliyatining ekologik oqibatini oldindan hisobga olişiga majbur böladigan tizimni şakllantiriş muhim.

Senat muhokamalarida kötarilgan masalalarga nazar taşlasak, ularning barçasida umumiy muammo közga taşlanadi: normalarni belgilaş bilan iş bitmaydi. Amalda bölgan, özgartiriş kiritilayotgan qonunlarda ham köplab me’yorlar belgilangan. Ammo ular işlamagan. Demak, muhokama qilinib ma’qullanayotgan qonunlar oldidagi eng katta vazifa – yangi talablar qöyiş emas, ularning işlaşini ta’minlaş.

Senatning 20-yalpi majlisida körib çiqilgan qonunlarning mazmunidan körinadiki, mamlakatda xavfsizlikka yondaşuv tobora profilaktikaga köçmoqda. Oziq-ovqat xavfsizligida – xavfni tahlil qiliş, veterinariyada – kasalliklarning oldini oliş, suv sohasida – hisob, sifat nazorati va mas’uliyatni kuçaytiriş ustuvor yönaliş sifatida belgilanmoqda.

Iste’molçi dökondan mahsulot sotib olganda uning xavfsizligiga işonişi, fermer çorva molini saqlaganda veterinariya talablariga rioya qilişi, korxona esa oqova suv çiqarayotganda uning ekologik oqibatini hisobga olişi şart. Mas’ul şaxs öz vazifasini bajarmasa, buning uçun kimdir emas, aynan özi javob berişini his qilişi kerak. Şundagina qonun qoğozdagi talabdan kundalik hayotdagi xavfsizlik kafolatiga aylanadi.

Uşbu qonunlarda tilga olingan yönalişlar butun jamiyat farovonligining bir-biriga boğlangan ustunlaridir. Şu ma’noda, oziq-ovqat xavfsizligi – bu şunçaki dasturxon tökinligi emas, balki millat salomatligi, jamiyat osoyiştaligi va davlat barqarorligining muhim kafolati. Çunki xavfsiz oziq-ovqat soğlom avlod, barqaror iqtisodiyot va farovon hayot uçun mustahkam zamin yaratadi.

Hamroqul QARŞIYEV
(«Xalq sözi»).

Senatorlar – hududlarda

ŞAFFOFLIK VA ANIQLIK MOHIYATI – RAQAMLAŞTIRIŞDA

Raqamlaştiriş – bugungi kun talabi. U hayotimizning barça sohasiga kirib kelmoqda. Bundan yurtimizdagi bozorlar ham mustasno emas.

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarşi kuraşiş qömitasi a’zosi Zumrad Bekatova hamda senator Moyra Toşova Buxoro markaziy bozori savdo majmuasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilişi holatini örgandi.

Asosiy e’tibor tizimni raqamlaştiriş, maişiy korrupsiyaning oldini oliş, naqd pul aylanmasi şaffofligini ta’minlaş hamda sotuvçi va xaridorlar uçun yaratilgan şaroitlarga qaratildi.

Xususan, bozorda taşkil etilgan Situatsion tahlil markazidagi texnik vositalarning real vaqt rejimida işlaş samaradorligi, murojaatlarga tezkor javob qaytariş tizimi, şuningdek, içki işlar, tibbiy yordam va FVV xizmatlari bilan integratsiyalaşuv mexanizmlari atrofliça közdan keçirildi.

Raqamlaştiriş natijasida markaz orqali savdo rastalarining umumiy soni va böş joylar holati, kunlik, haftalik hamda yillik patta tuşumlarining elektron hisobi, videokuzatuv qurilmalarining texnik holati, yonğin xavfsizligi qoidalariga rioya etilişini onlayn kuzatiş imkoniyati yaratilgan.

Senatorlar naqd pul aylanmasini nazorat qiliş maqsadida rastalarga QR-kod örnatiş böyiça amaliyotga tatbiq etilgan ijobiy tajriba va situatsion markazning işlaş uslubi iqtisodiy şaffoflikni ta’minlaşini va “xavfsiz bozor” tamoyilini töliq joriy etişga xizmat qilişini alohida ta’kidlaşdi.

Muloqot davomida savdo xodimlarining kayfiyati va ijtimoiy şaroitlari örganilib, aholining huquqiy madaniyatini oşiriş, şuningdek, jamoat xavfsizligini ta’minlaşda fuqarolar iştirokini kengaytiriş masalalariga alohida urğu berildi.

«Xalq sözi».

Özbekiston va Turkiya Antaliya şahrida BMTning Iqlim özgarişi böyiça Hadli konvensiyasi tomonlari konferensiyasining 31-sessiyasi (COP31) tadbirlari doirasida atrof-muhitni muhofaza qiliş sohasida hamkorlik töğrisidagi bitimni imzoladi.

MUSTAHKAM HUQUQIY ASOSLARGA TAYANGAN ISLOHOTLAR



1 Fuqarolarning uy-joy qurilişiga bergan mablağlari qonun bilan himoya qilinadi

Majlisda dastlab “Köp kvartirali uylarni va boşqa köçmas mulk obyektlarini uluş kiritiş asosida quriş töğrisida”gi qonun loyihasi ikkinçi öqişda körib çiqildi.

Uşbu hujjat bilan köp kvartirali uylar va boşqa köçmas mulk obyektlarini uluş kiritiş asosida quriş sohasidagi munosabatlar tartibga solinmoqda. Unda uluşli quriliş munosabatlari iştirokçilarining, davlat organlarining huquq va majburiyatlari, vakolatlari, özaro munosabatlariga oid qoidalar aniq belgilanyapti.

Qayd etilganidek, Prezidentimizning 2025-yil 27-yanvardagi farmoni bilan uluşli qurilişda “eskrou” tizimi bosqiçma-bosqiç joriy etilmoqda. Xususan, 2025-yil 1-iyuldan uluşdorlar mablağlarini “eskrou” hisobvaraqlari orqali jalb qiliş taraflarning tanloviga köra ixtiyoriy asosda amalga oşirilmoqda. Bu tizim hozirda ham işlab turibdi va fuqarolar uy-joy sotib olişda undan foydalanişi mumkin.

Farmonda 2026-yil 1-yanvardan mablağlarni faqat “eskrou” hisobvaraqlari orqali jalb etiş közda tutilgan. Qonun loyihasi bilan fuqarolar mablağlarini himoyalaş böyiça mustahkam huquqiy kafolatlar yaratilmoqda.

Loyihada fuqarolarning uluşli qurilişga kiritgan mablağlarining kafolatli himoya qilinişi mexanizmlari belgilanmoqda. Jumladan, ularning pul mablağlari töğridan-töğri quruvçi ixtiyorida emas, balki banklarda oçiladigan “eskrou” hisobvarağı orqali saqlanadi. Quriliş belgilangan talablar asosida amalga oşirilib, obyekt foydalanişga topşirilganidan söng mablağlar quruvçiga ötkaziladi.

Hujjatda quruvçi (developer) faqat qonunda belgilangan talablarga javob bergan, Yagona axborot tizimida röyxatdan ötgan, vakolatli bank bilan boş bitim tuzgan va loyiha deklaratsiyasini e’lon qilgan taqdirdagina aholi mablağlarini jalb etiş huquqiga ega bölişi belgilanmoqda. Bundan taşqari, uluşli qatnaşiş şartnomasi notarial tasdiqlanadi hamda belgilangan tartibda davlat röyxatidan ötkaziladi. Bu bir obyektning takroran sotilişi, noqonuniy şartnomalar tuzilişi kabi holatlarning oldini oladi.

Loyihada quruvçi qonun talablariga zid ravişda fuqarolar mablağlarini jalb qilgan taqdirda, uluşdor uşbu mablağlarni qaytarişni va ulardan foydalanilganlik uçun foiz tölanişini talab etiş huquqiga ega bölişi nazarda tutilmoqda. Şuningdek, quriliş loyihalarini öz vaqtida yakuniga yetkazişga qaratilgan ta’sirçan mexanizmlar ham belgilanyapti. Jumladan, zarur hollarda vakolatli bankni yoki quruvçini almaştiriş, qurilişning uzluksiz moliyalaştirilişini ta’minlaşga qaratilgan moliyaviy mexanizmlar yaratilmoqda. Bu esa qurilişning töxtab qolişining oldini oliş va uluşdorlar manfaatlarini işonçli himoyalaşga xizmat qiladi.

Loyihaga köra, uluşli quriliş haqidagi ma’lumotlar Yagona axborot tizimiga joylaştiriladi. Bu orqali fuqarolar quruvçi, quriliş obyekti va loyihaning amalga oşirilişi haqidagi muhim ma’lumotlar bilan oçiq va oson tanişiş imkoniga ega böladi. Şu tariqa bu borada zamonaviy, şaffof va samarali tizim yaratiladi.

Majlisda mas’ul qömita – Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantiriş va sanoat masalalari qömitasi tomonidan qonun loyihasini ikkinçi öqişga tayyorlaş jarayonida amalga oşirilgan işlar haqida ma’lumot berildi.

Şokirjon AHMEDOV,
qömita a’zosi:



– Qonun loyihasining amaliy ahamiyatini örganiş maqsadida bevosita qurilişi olib borilayotgan köp kvartirali uylar, quriliş jarayoni va uluşdorlar bilan işlaş holati joyida köriб çiqildi, uluşdorlar va quruvçilarning fikr-mulohazalari tinglandi. Örganişlar natijasida aniqlangan muammolar loyihani takomillaştirişda asos bölib xizmat qildi.

Qonun loyihasini ikkinçi öqişga tayyorlaşda uluşdorlarning huquq va manfaatlarini himoyalaşga alohida e’tibor qaratildi. Saylovçilar, ommaviy axborot vositalari, quruvçilar va developerlar, bank-moliya tizimi vakillari, sohaga daxldor boşqa subyektlar bilan muloqot qilinib, ularning fikr hamda takliflari örganildi. Bildirilgan mulohazalar sinçkovlik bilan tahlil qilinib, ularni qonun loyihasida aks ettiriş masalalari körib çiqildi.

Ta’kidlanganidek, ilğor xorijiy tajriba tahlil qilinib, bu sohada fuqarolar huquqlarini kafolatlovçi mexanizmlar nazarda tutilmoqda. Amalga oşirilgan işlar natijasida loyiha matni yanada takomillaştirilib, unga qator özgartirişlar kiritildi. Jumladan, uluşli iştirok etiş şartnomasi va unga kiritiladigan özgartiriş va qöşimçalar notarial tasdiqlanişi şarti belgilandi. Bu uluşdor bilan norasmiy “qöşimça kelişuv” tuzib, şartnoma şartlarini özgartiriş holatlarining oldini oladi.

Şuningdek, uyni topşiriş muddati buzilganda obyektni muammoli, deb topiş uçun yana olti oy kutiş talab etilmasligi nazarda tutildi. Quruvçining kamçiliklarni bartaraf qilmasdan, faqat tovon tölaş yöli bilan muammoli obyektlar reyestridan çiqib ketişiga yöl qöyilmasligi belgilandi.

Tadbirkorlardan qonunda nazarda tutilmagan hujjatlar talab qilinişining oldini oliş maqsadida noaniq bölgan “qöşimça ma’lumotlar” şaklidagi normalar çiqarib taşlandi, öndan ortiq havolaki norma böyiça qonunosti hujjatlarini işlab çiqiş muddatlari aniq belgilandi.

Ötiş tartibi nazarda tutilib, qonun kuçga kirganidan keyin qurilişiga ruxsatnoma olingan obyektlarga nisbatan tatbiq etilişi belgilandi. Bu qonunning işlaşida muammolarning oldini olib, amaldagi qurilişlarning töxtab qolişi xavfini kamaytiradi.

Bundan taşqari, amaldagi qonunçilik hujjatlaridan kelib çiqib, loyihaga yana köplab yuridik va tahririy özgartişlar kiritildi. Xususan, qonun loyihasidagi tuşunçalar va moddalar qayta tahrirlanib, aniqlaştiruvçi tuzatişlar kiritildi, takrorlanuvçi va mazmunan öxşaş moddalar özaro birlaştirildi. Bu qonun normalarining aniq, tuşunarli va töğridan-töğri amal qilişini ta’minlaydi.

Majlisda qonun loyihasi qizğin muhokama etildi. Munozaralarda qator savol hamda takliflar örtaga taşlandi. Jumladan, deputatlar mazkur hujjatning ahamiyati va zaruratini e’tirof qilgan holda unda belgilanayotgan huquqiy mexanizmlar közlangan maqsadlarga töliq muvofiq bölişi lozimligiga e’tibor qaratdi. Şuningdek, uluşli qurilişni moliyalaştiriş manbalariga oid normalarni yanada aniqlaştirişga oid mulohazalar bildirildi.

Mutasaddilar, soha vakillari kötarilgan masalalar yuzasidan batafsil tuşuntiriş berib ötdi. Qayd etilganidek, mazkur qonun loyihasining qabul qilinişi fuqarolarning uy-joy qurilişiga kiritgan mablağlarini işonçli huquqiy va moliyaviy mexanizmlar orqali himoyalaşga, bu borada zamonaviy, samarali va şaffof tizim yaratişga, mablağlarni qonunda belgilanmagan usulda jalb etiş holatlarining oldini olişga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Şaharsozlik kodeksiga qöşimça va özgartirişlar kiritilmoqda

“Urbanizatsiya sohasi takomillaştirilişi munosabati bilan Özbekiston Respublikasining Şaharsozlik kodeksiga qöşimça va özgartirişlar kiritiş töğrisida”gi qonun loyihasi ikkinçi öqişda muhokama qilindi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda aholi uçun qulay yaşaş muhitini yaratiş, şaharsozlik sohasida davlat boşqaruvi tizimini takomillaştiriş, urbanizatsiya jarayonlarini rivojlantiriş böyiça izçil çora-tadbirlar amalga oşirilmoqda.

Mazkur qonun loyihasi bilan urbanizatsiya jarayonlarini hisobga olgan holda şaharlarning jamiyat va iqtisodiyot rivojidagi rolini oşiriş, aholining turmuş tarzini sifat jihatdan yangi bosqiçga kötariş hamda ekologik muhitni va şahar infratuzilmasini yanada yaxşilaş, aholi punktlarini hududlarni kompleks rivojlantiriş asosida mutanosib rejalaştiriş şaharsozlikda asosiy prinsiplar sifatida belgilanmoqda.

Şuningdek, urbanizatsiya sohasida davlat boşqaruvi samaradorligini oşiriş, Özbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantiriş milliy qömitasining huquqiy maqomi va vakolatlari Şaharsozlik kodeksida aniq körsatilmoqda.

Qonun loyihasi bilan şaharlar va şaharçalarning boş rejalari, batafsil rejalaştiriş loyihalari hamda master-rejalarini kelişiş, urbanizatsiya jarayonlarini muvofiqlaştiriş bilan boğliq normalar aniqlaştirilmoqda.

Xususan, urbanizatsiya jarayonlarini hisobga oliş va qulay infratuzilmalarni yaratişni ta’minlaş maqsadida yirik va ahamiyatli turizm, biznes, madaniyat, sport hamda aholini faol jalb qilişga qaratilgan loyihalarni amalga oşiriş bilan boğliq huquqiy asoslar belgilanmoqda.

Odiljon MAMADALIYEV,
Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qiliş masalalari qömitasi a’zosi:



– Qonun loyihasini ikkinçi öqişga tayyorlaş jarayonida deputatlar tomonidan bildirilgan takliflar asosida uning normalari takomillaştirilib, amaldagi qonunçilik hujjatlariga muvofiqlaştirildi. Uşbu hujjatning qabul qilinişi urbanizatsiya jarayonlarini samarali boşqariş, hududlarni mutanosib rivojlantiriş, şaharsozlik sohasida idoralararo hamkorlikni kuçaytiriş hamda aholi uçun qulay va ekologik barqaror yaşaş muhitini şakllantirişga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Migratsiya va personallaştiriş faoliyati takomillaştirilmoqda

Deputatlar “Özbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga migratsiya va personallaştiriş bölinmalari faoliyatini takomillaştirişga qaratilgan özgartiriş va qöşimçalar kiritiş haqida”gi qonun loyihasini ikkinçi öqişda körib çiqdi.

Uşbu hujjat migratsiya va personallaştiriş sohasidagi taşkiliy özgarişlarni qonunçilikda aks ettiriş, vakolatli davlat organlarining nomlanişi va vakolatlarini özaro muvofiqlaştiriş, iş beruvçilarning çet el fuqarolari uçun mehnat faoliyati huquqiga doir tasdiqnomalarni oliş yuzasidan murojaat qiliş imkoniyatlarini kengaytiriş, davlat xizmatlari körsatişda qöşimça qulayliklar yaratiş hamda sohada huquqiy aniqlikni ta’minlaşga qaratilgan.

Majlisda qayd etilganidek, qonun loyihasini ikkinçi öqişga tayyorlaş jarayonida mas’ul qömita tomonidan deputatlar bildirgan taklif va mulohazalar atrofliça körib çiqilib, uning ayrim normalari yanada aniqlaştirildi.

Muhokama davomida qonun loyihasi yuzasidan deputatlar tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalar, şuningdek, huquqni qöllaş amaliyotidan kelib çiqib, ayrim normalar yanada takomillaştirilgani ta’kidlandi.

Jumanazar OTAJONOV,
Xalqaro işlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qömitasi a’zosi:



– Qonun loyihasi bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega bölib, uning qabul qilinişi qonunçilikni özaro muvofiqlaştirişga, migratsiya va personallaştiriş sohasidagi munosabatlarni zamonaviy talablar asosida tartibga solişga, fuqarolar va iş beruvçilar uçun qulayliklar yaratişga, huquqni qöllaş amaliyotini birxillaştirişga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Fuqarolar va tadbirkorlar manfaatlarini sud orqali himoyalaş kafolatlari kuçaytiriladi

Majlisda “Özbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga özgartiriş va qöşimçalar kiritiş töğrisida”gi qonun loyihasi birinçi öqişda muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, mazkur qonun loyihasi sud amaliyotida aniqlangan huquqiy böşliqlar va qarama-qarşiliklarni bartaraf etiş, fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qiliş kafolatlarini kuçaytirişga qaratilgan.

U bilan Fuqarolik protsessual kodeksiga, “Davlat boji töğrisida” hamda “Tölovga qobiliyatsizlik töğrisida”gi qonunlarga özgartiriş va qöşimçalar kiritiş nazarda tutilmoqda. Xususan, fuqarolik holati hujjatlari yozuvlaridagi notöğriliklarni sud tartibida aniqlaş bilan boğliq işlarni körib çiqişning aniq protsessual tartibi belgilanmoqda. Bu fuqarolarning ortiqça ovoragarçiligini kamaytiriş, öz huquqlarini tiklaş imkoniyatlarini kengaytirişga xizmat qiladi.

Şuningdek, qonun loyihasida tölovga qobiliyatsizlik işlari doirasida sud boşqaruvçisi öz vazifalarini lozim darajada bajarmagan taqdirda, unga tölanadigan haq miqdorini kamaytiriş, ayrim sud hujjatlari ustidan şikoyat qiliş imkoniyatlarini kengaytiriş, sudgaça sanatsiya qiliş hamda sud boşqaruvçilarini vazifasidan ozod etiş tartiblari közda tutilmoqda.

Bundan taşqari, davlat boji bilan boğliq ayrim normalarni özaro muvofiqlaştiriş, tölovga qobiliyatsizlik jarayonlarida kreditorlar va qarzdorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qiliş mexanizmlarini takomillaştiriş ham belgilanmoqda.

Majlisda aytilişiça, qonun loyihasining qabul qilinişi sudlar faoliyati samaradorligini yanada oşiriş, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritişi uçun eng qulay şaroitlar yaratiş, aholi va tadbirkorlik subyektlari uçun sodda hamda ixçam qonunçilik tizimini yaratişga kömak beradi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinçi öqişda qabul qilindi.

Yaylov yerlaridan samarali foydalaniladi

Deputatlar “Yaylovlar töğrisida”gi qonun loyihasini birinçi öqişda körib çiqdi.

Mamlakatimizda yaylov yerlaridan samarali foydalanişning zamonaviy modellarini joriy etiş, çöl-yaylov ösimliklari qoplamini tiklaş va hosildorligini oşiriş, yaylovlarni diversifikatsiyalaş va degradatsiyaga uçraşining oldini oliş borasida keng kölamli işlar amalga oşirilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda jami 21,2 million gektar yaylov yerlari mavjud. Şundan 16,3 mln. gektari Çorvaçilik va yaylov xöjaligini rivojlantiriş agentligining hududiy yaylov xöjaliklari hisobida, 3 mln. gektari örmon fondi, 1 mln.dan ortiği tabiatni muhofaza qiliş, soğlomlaştiriş va rekreatsiya maqsadlariga möljallangan. Bundan taşqari, 890 ming gektar maydonlar fermer xöjaliklari, qişloq xöjaligi, korxona va boşqa taşkilotlar hissasiga töğri keladi.

Qonun loyihasining asosiy maqsadi – yaylovlar muhofazasi va degradatsiyani qisqartiriş böyiça raqamli texnologiyalarga asoslangan samarali mexanizmlarni joriy qiliş, yaylovlardan “iqtisodiy aktiv” sifatida foydalaniş, jamoat yaylovlarini taşkil etiş uçun huquqiy asoslar yaratişdan iborat.

Mazkur qonun loyihasi bilan yaylovdan foydalaniş yönalişlari kengaytirilib, çorvaçilikdan taşqari ekoturizm, asalariçilik, dorivor ösimliklar yetiştiriş kabi yangi daromadli yönalişlarda ham faoliyatga ruxsat berilmoqda. Şuningdek, aholi xonadonlarining yaylovlardan foydalanişini qonuniylaştiriş, çorva mollarini boqişda aholiga qulay şaroit yaratiş maqsadida jamoat yaylovlari instituti joriy qilinayotir.

Bundan taşqari, işlatilmayotgan yaylovlarni iqtisodiy aylanmaga kiritiş mexanizmi (elektron auksion, investitsiya şartnomasi va davlat-xususiy şeriklik asosida) yaratilmoqda. Yaylovdan foydalaniş tartib-taomillari mahalliy aholi va biznes uçun soddalaştirilgan tarzda (ijara şartnomasi va çipta mexanizmlari asosida) amalga oşirilişi közda tutilyapti.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan bir qator savollar kötarildi.

Zafar XUDOYBERDIYEV,
ÖzLiDeP fraksiyasi a’zosi:



– Qonun loyihasi bilan Qişloq xöjaligi vazirligi huzuridagi Çorvaçilik va yaylov xöjaligini rivojlantiriş agentligi maxsus vakolatli davlat organi sifatida belgilanib, uning vakolatlari körsatib berilmoqda. Qonunning amaldagi tahririda uşbu agentlikning yuqori turuvçi organi bölgan – Qişloq xöjaligi vazirligining vakolatlari belgilab berilgan edi. Agentlik Qişloq xöjaligi vazirligi huzurida bölsa-da, uning vakolatlari alohida körsatilgani holda, nima uçun yuqori turuvçi organ sifatida Qişloq xöjaligi vazirligining vakolatlari çiqarib taşlanmoqda, ya’ni uşbu sohadagi davlat boşqaruvidan çetda qoldirilmoqda?

Qonun loyihasi taşabbuskorlari savol örinli ekani va uşbu masalaga hujjatni ikkinçi öqişga tayyorlaş jarayonida e’tibor qaratilişini bildirdi.

Qonun loyihasi birinçi öqişda qabul qilindi.

Agentlik direktoriga parlament sörovi yuborildi

Texnik jihatdan tartibga soliş agentligi direktori A. Zokirovga “Texnik jihatdan tartibga soliş sohasida davlat boşqaruvini samarali taşkil etiş, raqamlaştiriş hamda şaffof va korrupsiyadan xoli tizimni şakllantiriş borasida amalga oşirilayotgan işlar töğrisida” Qonunçilik palatasining parlament sörovini yuboriş haqidagi masala körib çiqildi.

Ta’kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda mahsulotlar xavfsizligini ta’minlaş, savdodagi texnik tösiqlarni kamaytiriş hamda mahalliy işlab çiqaruvçilarning raqobatbardoşligini oşiriş maqsadida texnik jihatdan tartibga soliş, standartlaştiriş, metrologiya va muvofiqlikni baholaş tizimlari isloh qilinmoqda.

Majlisda parlament sörovini yuborişning ahamiyati, sohada mavjud bölgan va öz yeçimini kutayotgan ayrim masalalarga töxtalib ötildi. Xususan, mavjud standartlar bazasini yangilaş, bir qança sohalarda töliq xalqaro standartlarga ötiş işlarini jadallaştiriş, Jahon savdo taşkilotiga a’zo bölişi jarayonida texnik jihatdan tartibga soliş tizimining xalqaro talablarga töliq mos bölişini ta’minlaş lozimligi alohida qayd etildi.

Şuningdek, sohada korrupsiyaviy holatlarning, ortiqça byurokratiya va manfaatlar töqnaşuvining oldini oliş, sertifikatlaştiriş tartib-taomillarini soddalaştiriş, raqamlaştiriş işlarini jadallaştiriş lozimligi ta’kidlandi.

Majlisda yuqoridagilardan kelib çiqib, texnik jihatdan tartibga soliş sohasidagi işlar holati, korrupsiyaning oldini oliş, raqamlaştiriş, standartlar bazasini yangilaş va boşqa masalalar borasida amalga oşirilayotgan işlar yuzasidan asoslantirilgan tuşuntirişlar beriş böyiça Texnik jihatdan tartibga soliş agentligi direktoriga parlament sörovi yuborildi.

«Xalq sözi».

«Uzbekistan Airways» AJ 2027-yil 5-apreldan boşlab Toşkent – Varşava – Toşkent yönalişi böyiça muntazam töğridan-töğri aviaqatnovlarni yölga qöyadi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq sözi
2026-yil 11-noyabr

INSON QADRI VA IJTIMOIY ADOLAT YÖLIDAGI SA’Y-HARAKATLAR



1 Ta’kidlanganidek, Prezidentimiz ötgan yili 17-oktyabr kuni Özbekiston kasaba uyuşmalari faollari va faxriylari bilan uçraşuvda “Kuçli kasaba uyuşmalari – kuçli jamiyat asosidir!” degan fikrni bildirgan edi. Şu ma’noda, kuçli kasaba uyuşmalari, avvalo, eng quyi böğindan – har bir hududiy va tarmoq kengaşidan, har bir boşlanğiç kasaba uyuşmasi taşkilotidan boşlanadi. Çunki boşlanğiç taşkilot butun kasaba uyuşmalari harakatining eng muhim tayançidir. U bevosita mehnat jamoasi bilan birga yaşaydi, xodimning dardini eşitadi, muammosini biladi, ehtiyojini his etadi.

Yurtimizda kasaba uyuşmalarining erkin va mustaqil faoliyat yuritişi uçun barça şaroit yaratilgan. Bundan samarali foydalangan holda mamlakatimizda amalga oşirilayotgan islohotlarda yurtimizdagi eng yirik jamoat taşkiloti bölgan kasaba uyuşmalari ham faol iştirok etmoqda. Xususan, bugun Yangi Özbekistonning yangi kasaba uyuşmalari ijtimoiy şeriklik hamda ijtimoiy muloqot tamoyillari asosida mehnat ahlining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari va mehnat huquqlarini himoyalaş bilan birga, aholi turmuş farovonligini oşiriş, bandlikni ta’minlaş, munosib mehnat şaroitlarini yaratiş yönalişlarida ham tizimli işlarni bajarmoqda. Sirasini aytganda, yurtimizdagi yangilaniş va özgarişlarda Yangi Özbekistonning yangi kasaba uyuşmalari ham faol iştirok etib, islohotlarni qöllab-quvvatlagan holda turli soha xodimlari manfaatlarini himoyalab kelmoqda. Bunga oxirgi ön yil davomida davlat, kasaba uyuşmalari va iş beruvçilar örtasida tripartizm şaklidagi ijtimoiy şeriklikning yuqori bosqiçga kötarilgani ham yorqin dalildir.

Tadbirda aytib ötilganidek, “ayollar daftari” bilan işlaş böyiça amalga oşirilgan işlar doirasida ötgan davrda mutasaddi vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda 1 026 122 nafar xotin-qiz bilan muloqot ötkazilib, ularning hayotiy muammolari, dard-u taşvişlari va ehtiyojlari örganildi. Eng muhimi, uşbu örganişlar natijasida 1 mln. 25 mingdan ziyod xotin-qizning muammolarini ijobiy hal etişga erişildi. Bunda kasaba uyuşmalari davlatimiz tomonidan xotin-qizlarni qöllab-quvvatlaş borasida amalga oşirilayotgan islohotlarning faol iştirokçisi, davlat idoralari bilan aholi örtasidagi işonçli hamkor sifatida namoyon böldi.

– Hozirgi paytda Özbekiston kasaba uyuşmalari Federatsiyasi tizimida 32 ta sanatoriy, 84 ta bolalar soğlomlaştiriş oromgohi, 4 ta ixtisoslaştirilgan bolalar va ösmirlar sport maktabi faoliyat yuritmoqda, – deydi Özbekiston kasaba uyuşmalari Federatsiyasi Matbuot xizmati rahbari Muhabbat Örmonbekova. – Uşbu obyektlar insonlarga naf keltiriş hamda inson manfaatlarini amalda ta’minlaşga xizmat qilayotir. Yana bir e’tiborli jihati, bugun kasaba uyuşmalarining faoliyati faqat mamlakatimiz doirasi bilan çeklanib qolmayapti. Xorijiy davlatlardagi turdoş taşkilotlar va xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlik aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda. Bu esa,



şubhasiz, Prezidentimizning oçiq hamda pragmatik taşqi siyosati natijasidir.

Tantanali tadbirda mehnat sohasidagi islohotlarga alohida urğu berildi. Xususan, mamlakatimizda majburiy mehnatga barham beriş, paxtaçilikda yillar davomida ildiz otgan eski tizimni tubdan özgartiriş borasida Yurtboşimiz taşabbusi va siyosiy irodasi bilan amalga oşirilgan islohotlar e’tirof etildi. Şuningdek, kasaba uyuşmalari tizimida iş samaradorligini oşiriş, mazkur jarayonda har bir rahbarning mas’uliyatini yanada kuçaytiriş, bu orqali mehnatkaşlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari hamda mehnat huquqlari himoyasini kuçaytiriş masalalariga töxtalib ötildi. Buning uçun quyi böğin yetakçilarining bilim va malakasini oşiriş, taşabbuslarini qöllab-quvvatlaş, ularga zarur şaroitlarni yaratiş işlarini yanada kuçaytiriş zarurligi aytildi.

Darvoqe, sönggi yillarda Kasaba uyuşmalari Federatsiyasi tomonidan yakunlanayotgan yilning sarhisobi sifatida özining munosib mehnatlari bilan Vatanimiz ravnaqiga, xalqimiz farovonligiga, şuningdek, kasaba uyuşmalari harakati rivojiga munosib hissa qöşgan eng faol, fidoyi va taşabbuskor insonlar mehnatini e’tirof etiş an’anaga aylangan.

Tadbirda Vatanimiz ravnaqi yölida fidokorona mehnat qilayotgan insonlarni har tomonlama qöllab-quvvatlaş, ularni munosib rağbatlantiriş, köp yillik ilğor iş tajribasiga ega bölgan insonlarni e’zozlaş maqsadida Kasaba uyuşmalari Federatsiyasi e’lon qilgan turli ijtimoiy loyihalar va körik-tanlovlar ğoliblari taqdirlandi.

Xususan, köp yillik samarali mehnati, erişgan alohida yutuqlari bilan soğliqni saqlaş, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarini rivojlantiriş, şuningdek, kasaba uyuşmalarining nufuzini yuksaltirişga munosib hissa qöşib kelayotgan yurtdoşlarimizni qöllab-quvvatlaş, rağbatlantiriş maqsadida ta’sis etilgan “Özbekiston kasaba uyuşmalari Federatsiyasi laureati” mukofotining 2026-yilgi sovrindorlariga kökrak nişoni, pul mukofoti va guvohnoma tantanali ravişda topşirildi. Xususan, milliy adabiyotimiz va madaniyatimiz ravnaqiga qöşgan ulkan hissasi hamda tavalludining 100 yilligi munosabati bilan özbek xalqining jonkuyar va vatanparvar farzandi, atoqli adib, jamoat arbobi, Özbekiston xalq yozuvçisi, marhum Odil Yoqubov va yana 4 nafar yurtdoşimiz “Özbekiston kasaba uyuşmalari Federatsiyasi laureati” mukofoti bilan taqdirlandi.

Şundan söng xalqimiz turmuş farovonligini yanada oşiriş yönalişlaridagi işlarda faol iştirok etayotgan, mehnatkaşlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq hamda manfaatlarini himoya qilişga va kasaba uyuşmalari faoliyati rivojiga munosib hissa qöşib kelayotgan bir guruh yurtdoşlarimizga Özbekiston kasaba uyuşmalari Federatsiyasining “Ehtirom” nişoni, Faxriy yorliği topşirildi. Şu bilan birga, tizimdagi faol xodimlar, xalqaro nufuzli musobaqalarda yuqori natijalarni qölga kiritgan sportçi va murabbiylar, turli körik-tanlov hamda nominatsiyalar ğoliblari ham rağbatlantirildi.

Rahim ŞERQULOV («Xalq sözi»).

Akmal Muhammadov va Alixon Utarbekov olgan suratlar.

Özbekiston kasaba uyuşmalari Federatsiyasi tomonidan joriy yilning ötgan ön oyi mobaynida:

- **3 mingga yaqin** xodimlarning mehnat huquqi himoya qilindi. Ular foydasiga qariyb **9 mlrd. söm** miqdorida mablağ undirib berildi.
- **1 070** nafar xodim öz iş joyiga qayta tiklandi. Mehnat muhofazasi böyiça **3 mingdan ortiq** kamçiliklar bartaraf etildi.
- Kasaba uyuşmalari tizimidagi sanatoriylarda **60 ming** nafar xodim va ularning oila a’zolari imtiyozli soğlomlaştirildi.
- **105** nafar uruş va mehnat fronti faxriysining salomatligi tiklandi.
- **331 ming** nafardan ziyod bola statsionar va kunduzgi oromgohlarda dam oldirildi.
- **303 702** nafar xodim va ularning oila a’zolari, **5 mingga** yaqin keksa avlod vakillarining respublikamizdagi diqqatga sazovor maskanlariga sayohatlari taşkil etildi.

ODAMIYLIK AKS ETGAN TUYĞU

Ayni paytda Farğona viloyatidagi 13,5 mingdan ortiq korxona, taşkilot va muassasada jamoa şartnomasi imzolangan bölib, bu orqali salkam 600 ming nafar işçi-xodimning ijtimoiy himoyasi nazarda tutilgan. Birgina joriy yilning 9 oyida davlat dasturi tadbirlari doirasida viloyatdagi 6 506 ta korxonada 63,5 ming nafardan ziyod xodimlar uçun deyarli 11 milliard sömlik ijtimoiy kömak körsatildi. Ötgan 9 oyda 11 ta murojaat asosida işçi-xodimlarning 60 mln. söm iş haqi va unga tenglaştirilgan tölovlari undirib berildi.



Viloyatda yirik sanoat korxonalari, klasterlar, umuman olganda, işlab çiqariş jarayonida mehnat şaroitlari hamda xodimlar farovonligini ta’minlaş masalasi doimiy e’tiborda. Misol uçun, “Farğona neftni qayta işlaş zavodi” MÇJ birlaşgan kasaba uyuşmasi taşkiloti öz safida tört ming nafarga yaqin işçi-xodimlarni birlaştiradi. Zavodda kasaba uyuşmasi va ma’muriyat örtasidagi munosabatlar ijtimoiy şeriklik tamoyillariga asoslangan. Boisi ikki tomonlama imzolangan va sohadagi eng namunali hujjatlardan biri hisoblangan jamoa şartnomasi işçilar manfaatlarini himoya qilişning huquqiy kafolatidir.

Şu yilning ötgan davrida zavodda mehnat qilayotgan 66 nafar işçi-xodim şifoxonada öz soğliğini tikladi, 78 nafari sanatoriylarga imtiyozli yöllanmalar bilan ta’minlandi, 111 nafar işçi-xizmatçi hamda korxona faxriylariga ijtimoiy yordam körsatildi. Yangi öquv yili oldidan qariyb 2 ming nafar xodim farzandlariga öquv qurollari berilgan bölsa, 180 nafar öğil-qiz yozgi ta’tilda oromgohlarda soğlomlaştirildi. Aynan kasaba uyuşmasi taşabbusi bilan zavodda işlayotgan yordamga muhtoj işçilarni muntazam ravişda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlaş yölga qöyilgan.

Özbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi va “Kasaba uyuşmalari töğrisida”gi Qonunga köra, boşlanğiç kasaba uyuşmasi qömitasi joriy yilda öz yiğilişlarida 23 nafar işçi taqdiri bilan boğliq hamda iş beruvçi taşabbusi bilan mehnat şartnomasini bekor qiliş böyiça taqdimnomalarni körib çiqdi. Natijada noqonuniy bölgani uçun 12 ta holatda kasaba uyuşmasi qömitasi qaroriga köra ular bilan mehnat şartnomasini bekor qilişga rozilik berilmadi.

2026-yil yanvar – sentyabr oylarida viloyatda işlab çiqariş korxonalarida baxtsiz hodisalar oqibatida jabrlangan xodimlarni ijtimoiy qöllab-quvvatlaş maqsadida suğurta kompaniyalari mablağlari hisobidan 881 mln. 300 ming söm ajratildi. Şu bilan birga, iş beruvçilar tomonidan 81 mln. 675 ming hamda kasaba uyuşmalari kömagida 14 mln. 77 ming söm miqdorida moddiy yordam hamda tovon pullari tölab berildi.

Bugun işlab çiqariş samaradorligini oşiriş bilan bir qatorda, inson qadri va mehnat huquqlarini ta’minlaş viloyatdagi har bir sanoat korxonasi, işlab çiqariş klasteri oldida turgan muhim vazifalar sirasiga kiradi. Ayni jarayonda iş beruvçining mas’uliyatini kuçaytiriş, kasaba uyuşmalari tomonidan jamoatçilik nazoratini yanada samarali taşkil etiş ham zarur. Mehnatni muhofaza qiliş böyiça vakillarning faolligini oşiriş, zamonaviy xavfsizlik texnologiyalarini joriy qiliş, xodimlarning ijtimoiy farovonligini ta’minlaş yanada muhim. Zero, xavfsiz mehnat – xodimning huquqi, iş beruvçining mas’uliyati va kasaba uyuşmalarining ustuvor faoliyat yönalişi.

Erkinjon NURALIYEV, Özbekiston kasaba uyuşmalari Federatsiyasi Farğona viloyati Kengaşi raisi.

YANA BIR SÖLIM BOĞ



Bayram arafasida Özbekiston kasaba uyuşmalari Federatsiyasining Xorazm viloyati kengaşi xodimlari, tarmoq kasaba uyuşmalari vakillari, faxriylar hamda turli sohalarda faoliyat körsatayotgan kasaba uyuşmasi a’zolari Urganç tumanidagi “Kasaba uyuşmalari boği”ga 1 750 tup arça va terak köçatlarini ekişdi.

Özbekiston kasaba uyuşmalari Federatsiyasining Xorazm viloyati kengaşi raisi Gulsara Qurbonboyevaning aytişiça, “Yaşil makon” umummilliy loyihasi doirasida taşkil etilgan uşbu tadbirdan közlangan maqsad boğ hududini yanada obod va körkam maskanga aylantiriş, atrof-muhit musaffoligini asraş hamda kelajak avlod uçun munosib tabiiy muhit yaratişga hissa qöşişdir.

Uşbu boğ Prezidentimiz taşabbusi asosida yaratilgan bölib, uning umumiy maydoni 20 gektarni taşkil qiladi. Ötgan yili 35 ming tupdan ziyod 15 xil manzarali daraxt, jumladan, arça, qarağay, terak, gujum va boşqa turdagi köçatlar ekilgan edi. Şuningdek, boğ hududiga 3 ming donadan ortiq atirgullar ötqazildi. Aholi uçun qulay şaroit yaratiş maqsadida boğda 6 kilometr uzunlikda yuriş va yuguriş yölakçalari barpo etilgan, 60 ta zamonaviy örindiq örnatilgan va 3 ta ayvon qurilgan.

“Kasaba uyuşmasi boği” aholi miriqib dam oladigan, turli madaniy-ma’rifiy tadbirlar, bayramlar, ommaviy uçraşuvlar ötkaziladigan sölim maskanga aylandi.

«Xalq sözi».

BEMINNAT KÖMAK QUVONÇI

Bugun mamlakatimizda işlab çiqarilayotgan kimyo sanoati mahsulotlarining qariyb yarmi “Navoiyazot” yöl-kommunikatsiya tarmoqlaridan iste’molçilarga jönatiladi. Şuningdek, mineral öğitlar tayyorlaşda “Navoiyazot”ga nainki Özbekiston, balki Markaziy Osiyo mintaqasida ham teng keladigan turdoş korxona yöq.

Navoiy viloyati sanoat mahsulotlari hajmida esa uning uluşi salkam 30 foizga teng. Bu yerda minglab yuqori malakali muhandis, kimyo texnologi va işçi-xizmatçilar mehnat qilişadi. Korxona faoliyati kimyo, reaksiya, gazlar bilan boğliq ekan, ijtimoiy-iqtisodiy nafi bilan birga atrof-muhit va jamoa salomatligiga ta’siri ham bor gap.

Şu bois korxonada iş beruvçi va kasaba uyuşmasi qömitasi örtasidagi munosabatlar jamoa şartnomasi asosida yölga qöyilib, ijtimoiy şeriklik xodimlarning mehnat, ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlarini ta’minlaş bilan bir qatorda, ularning salomatligini muhofazalaş va turmuş farovonligini oşirişga qaratilgan muhim taşabbuslarda özining amaliy ifodasini topmoqda.

– “Kasaba uyuşmalari töğrisida”gi Özbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinişi faoliyatimizda mutlaqo yangi sahifa oçdi, – deydi korxona kasaba uyuşmasi qömitasi raisi Feruza Fayziyeva. – Bevosita sanatoriy-profilaktoriyimizni modernizatsiya qilişga töxtaladigan bölsak, bundan közlangan asosiy maqsad faqat binolarni ta’mirlaş yoki zamonaviy uskunalar bilan jihozlaş emas, balki har bir xodimning salomatligini mustahkamlaş, mehnat qobiliyatini saqlaş, iş jarayonida töplangan toliqişni bartaraf etiş hamda sifatli tibbiy va soğlomlaştiriş xizmatlaridan foydalaniş uçun qulay imkoniyat yaratişdir. Şu maqsadda yil boşidan buyon beş ming nafarga yaqin xodimlar profilaktik tibbiy körikdan ötkazildi. Ularning ming nafardan ziyodi jarrohlik va kasb kasalliklari bölimlarida bepul davolanib, salomatligini tikladi. Bundan taşqari, respublikamiz hududidagi sanatoriy hamda soğlomlaştiriş maskanlarida 251 nafar xodimning dam olişi va salomatligini tiklaş işlari taşkil etildi.

Korxonada uyuşma tomonidan aniq manzilli ijtimoiy himoya tizimi yölga qöyilib, yordam, haqiqatan ham, unga muhtoj insonlarga yönaltirilmoqda. Masalan, 033-sex laboranti Madina Xöjayevaning közida, 907-sex elektromontyori Dilşod Kenjaboyevning quloğida ötkazilgan jarrohlik operatsiyalari xarajatlari tölab berildi.

– Baxtsiz hodisa tufayli işlab çiqariş nogironi bölib qoldim, – deydi Azizjon Aminjonov. – Kasaba uyuşmasining kömagi bilan korxonamiz tomonidan protez moslamasi olib berilib, holimdan doimiy xabar olib turişibdi.

Bu kabi manzilli yordamlar yil boşidan buyon 1167 nafar xodim, 30 nafar işlab çiqariş nogironligi borlarga, qariyb 300 nafar pensioner va 11 oilaga körsatildi. Tabiiyki, bu şunçaki bir martalik tölov emas, balki korxonada yillar davomida mehnat qilgan insonlarga nisbatan hurmat va e’tibor hamda jamiyatimizdagi “Inson qadri uçun” tamoyilining amaliy ifodasidir.

«Xalq sözi».

XODIMLAR MANFAATI – ASOSIY MAQSAD

Har bir mehnat jamoasida işçi-xodimlarning öz örni, huquqi va manfaati bor. Ana şu manfaatlarni himoya qiliş, xodim bilan iş beruvçi örtasidagi munosabatlarda qonuniylikni ta’minlaş kasaba uyuşmalarining asosiy vazifalaridan.



Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida ötkazilgan uçraşuvda ana şu haqda söz bordi.

Özbekiston kasaba uyuşmalari Federatsiyasi apparat rahbari O. Soliyev, Kasaba uyuşmalari Federatsiyasi raisi maslahatçisi J. Abbosov qatnaşgan muloqotda kasaba uyuşmalarining bugungi kundagi ustuvor vazifalari, xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari va mehnat huquqlarini ta’minlaş, jamoa şartnomalari ijrosi, xodimlarning taklif va murojaatlarini örganiş masalalariga e’tibor qaratildi.

Tadbirda filial kasaba uyuşmasi qömitasi raisi G. Kazaxbayeva kasaba uyuşmasi qömitasi faoliyati, jamoada xodimlarning manfaatlarini himoya qiliş, ularni ijtimoiy qöllab-quvvatlaş borasidagi işlar xususida töxtaldi.

Bayram munosabati bilan oliygohning bir guruh xodimlariga Özbekiston agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyuşmasi Respublika kengaşi rahbariyati tomonidan taşakkurnomalar va esdalik sovğalari topşirildi.

DIQQATGA SAZOVOR JOYLARGA SAYOHAT

“Yangi Özbekiston – yangi kasaba uyuşmalari” şiori ostida Madaniyat, sport va turizm xodimlari kasaba uyuşmasi Farğona viloyati birlaşgan qömitasi va Federatsiyaning Farğona viloyati kengaşi faol işçi-xodimlari va mehnat faxriylari uçun Andijonga sayohat taşkil qildi.



Sayohat iştirokçilari Andijon viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida, Zahiriddin Muhammad Bobur xalqaro jamoat fondi muzeyi hamda milliy boği, Devonaboy madrasasida bölişdi. Şuningdek, Andijonning sölim göşalarini tomoşa qildi.

Sayohat iştirokçilarda yorqin taassurot qoldirdi.

«Xalq sözi».

«Özbekiston poçtasi» AJ Umumjahon poçta ittifoqining xavfsizlik standarti böyiça «kumuş» darajadagi sertifikatga ega böldi.



TARIXIY PAXTA XIRMONI

agrar sohada bilim va innovatsiyalarga asoslangan iş uslubi hamda yangi yondaşuvlarning yuksak samarasi

Bu yil yurtimizda 5 million tonnadan ortiq paxta xomaşyosi yetiştirilib, Özbekiston paxtaçiligi tarixida yangi sahifa oçildi. Bu – davlatimiz rahbarining taşabbusi bilan qişloq xöjaligini modernizatsiya qilişga qaratilgan xalqçil islohotlar, ilm-fan yutuqlari va zamonaviy agrotexnologiyalar uyğunligining yorqin ifodasidir. Zero, uşbu natija sönggi ön yillikda paxtaçilikda şakllangan yangi yondaşuvlar, yer va suv resurslaridan samarali foydalaniş, ilğor innovatsiyalarni keng qöllaş, işlab çiqariş jarayonlarini mexanizatsiyalaştiriş hamda hosildorlikni oşiriş tufayli qölga kiritildi.

Munosabat

Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyev ulkan paxta xirmoni bunyodkorlariga yöllagan tabrikda ta'kidlanganidek, "qişloq xöjaligining yuksak va barqaror taraqqiyoti – butun mamlakatimizning yuksak va barqaror taraqqiyotida ustuvor örin tutadigan omildir". Ayni şu jihat dehqon va fermerlar, klaster xodimlari, agronom, suvçi, mexanizator, olim va mutaxassislar, şu jumladan, ta'lim va ilm-fan muassasalari zimmasiga ham yangi mas'uliyat yuklaydi.

Raqamlardagi taraqqiyot aksi

Olim va mutaxassislar tomonidan mavsum davomida olib borilgan örganişlarga tayanib aytganda, paxtaçilikda qölga kiritilgan yutuqning bir neça omillari bor. Bu haqda söz yuritilganda, biotexnologiya asosida yaratilgan yangi navlardan foydalanilib, ekiş sxemasi özgartirilgani, yangi agrotexnologik yondaşuvlar asosida resurs tejovçi texnologiyalar joriy etilganini, ösimliklarni zararkunanda va begona ötlarga qarşi himoya qiliş usullari takomillaştirib borilayotganini alohida ta'kidlaş zarur.

Darhaqiqat, paxtaçilikda muvaffaqiyatni mamlakatimiz agrar siyosatidagi keyingi yillarda röy bergan tub özgarişlardan ayri tasavvur etib bölmaydi. Negaki, ilgari paxta yetiştiriş, asosan, ekin maydonlarini kengaytiriş hisobidan köproq hosil olişga qaratilgan bölsa, bugun bu boradagi qaraşlar tamomila özgargan. Har bir gektar yerdan samarali foydalaniş, hosildorlikni oşiriş, resurslarni tejaş va mahsulot tannarxini kamaytiriş asosiy mezonga aylangan.

Raqamlarga murojaat qiladigan bölsak, sobiq ittifoq davrida paxta maydonlari qariyb 2 million gektarni taşkil etgan, biroq örtaça hosildorlik 30 sentnerdan oşmagan. 2000-yilda esa 1,4 mln. gektar maydondan qariyb 3 mln. tonna paxta olingan. Keyingi yillarda esa paxta maydonlari 38 foizga qisqartirilgani holda, hosildorlik 2,7 barobarga oşib, gektaridan 21 sentnerdan 56 sentnerga yetkazildi. Ayrim hududlarda esa bu körsatkiç ança yuqori böldi: qariyb 400 ming gektar maydonda örtaça hosildorlik 70 sentnerni taşkil etdi, 70 ming gektarga yaqin maydonda esa 100 – 110 sentner hosil olindi. Mingga yaqin fermer xöjaligi va klasterda gektaridan 100 sentner va undan ortiq paxta yetiştirilgani ham sohadagi imkoniyatlar kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Bu raqamlar bizga bir muhim xulosani beradi: agrar sohadagi taraqqiyotning asosiy mezoni ekin maydonlarining hajmi emas, balki yer, suv, texnika, ilm-fan va inson salohiyatidan qançalik oqilona foydalanilayotganidir.

Mehnat madaniyatining muhim şarti

Göza texnik ekan emasmi, uning istiqboli köp jihatdan zamonaviy texnika va texnologiyalar, mexanizatsiyalaştiriş darajasiga boğliq. Şu bois paxtaçilikda qöl mehnatini kamaytirişga qaratilgan yangilaş jarayonlari jadallaşgan. Natijada joriy mavsumda paxta hosilining 85 foizi paxta teriş maşinasi yordamida 30-35 kun içida yiğiştirib olindi. Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida paxta terimini mexanizatsiyalaştiriş darajasining 100 foizga yetkazilgani esa bu boradagi muhim amaliy natijadir.

Paxta yiğim-terimi mavsumida jami 3000 ta paxta teriş maşinasi jalb etilgan bölsa, şundan 1500 tasi şu yil xarid qilingan yuqori unumli texnikalardir. Qöl mehnatidan, asosan, kombayn kira olmaydigan kiçik paxtazorlarda foydalanildi, xolos. Ularning umumiy maydoni qariyb 53 ming gektarni taşkil etadi. Bunday yerlarni kelgusida paxta ekişdan çiqariş rejalaştirilgan.

Sohadagi eng katta strategik yönaliş – paxtani umuman qölda termaslik, uni maşinada terişga moslaştiriş vazifasi. Prezidentimizning soha oldiga qöygan topşiriqlari şunday: paxta faqat manfaat asosida, maşinada terilişi kerak. Şundan kelib çiqib, 2027-yildan Özbekiston dalalarida paxta 100 foiz maşina yordamida terib olinişi maqsad qilingan. Agar bundan atigi ön yil avval ham paxtaning deyarli barçasi qölda terilganini, mexanizatsiyalaştiriş darajasi esa 25 foizga ham yetmaganini inobatga oladigan bölsak, agrar sohadagi islohotlar inson manfaatlari, uning qadrini oşirişga xizmat qilayotganiga yana bir karra amin bölasiz.



Şu örinda aytiş joizki, mexanizatsiyaning ahamiyati faqat terim muddatini qisqartiriş yoki mehnat unumdorligini oşiriş bilan çeklanmaydi. U inson mehnatini yengillaştiradi, mavsumiy iş jarayonlarini tizimli taşkil etişga yordam beradi, hosilni öz vaqtida yiğib oliş va mahsulot sifatini saqlaş imkoniyatlarini kengaytiradi. Şu ma'noda, zamonaviy qişloq xöjaligi texnikasini boşqara oladigan, uning tuzilişi va işlaş tamoyillarini tuşunadigan, texnik xizmat körsatiş va xavfsizlik talablariga rioya qiladigan mutaxassislarni tayyorlaş dolzarb vazifaga aylanmoqda.

> ***Sohadagi eng katta strategik yönaliş – paxtani umuman qölda termaslik, uni maşinada terişga moslaştiriş vazifasi. Prezidentimizning soha oldiga qöygan topşiriqlari şunday: paxta faqat manfaat asosida, maşinada terilişi kerak. Şundan kelib çiqib, 2027-yildan Özbekiston dalalarida paxta 100 foiz maşina yordamida terib olinişi maqsad qilingan. Agar bundan atigi ön yil avval ham paxtaning deyarli barçasi qölda terilganini, mexanizatsiyalaştiriş darajasi esa 25 foizga ham yetmaganini inobatga oladigan bölsak, agrar sohadagi islohotlar inson manfaatlari, uning qadrini oşirişga xizmat qilayotganiga yana bir karra amin bölasiz.***



Şuning uçun Toşkent davlat agrar universitetida ta'lim jarayonini işlab çiqariş bilan boğlaş, talabalarning nazariy bilimlarini real işlab çiqariş şaroitida mustahkamlaşga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Toşkent traktor zavodi bilan yölga qöyilgan hamkorlik bu borada muhim ahamiyatga ega.

Gap şundaki, "Qişloq xöjaligini mexanizatsiyalaştiriş" va "Agromuhandislik" ta'lim yönalişlarida tahsil olayotgan uçinçi va törtinçi bosqiç talabalari uçun dual ta'limning 4+1 şakli joriy etildi. Unga köra, talabalar haftaning bir kunida universitetda nazariy va laboratoriya maşğulotlarida iştirok etsa, tört kunini korxonada amaliy tayyorgarlikka bağişlaydi. Bunday yondaşuv talabaga qişloq xöjaligi texnikasining faqat tayyor maşina sifatidagi körinişini emas, balki uning loyihalanişi, işlab çiqarilişi, sifat nazorati, texnik xizmat körsatilişi va xavfsiz ekspluatatsiyasi bilan boğliq jarayonlarni ham anglaş imkonini beradi. Eng muhimi, bölajak mutaxassis işlab çiqariş muhitiga erta moslaşadi, kasbiy intizom va jamoada işlaş könikmalarini şakllantiradi.

Bilim dalada amaliy natijaga aylanadi

Paxtaçilikda yuqori samaradorlikni zamonaviy texnika yoki sifatli uruğlik bilan ta'minlaş kafolatlamaydi. Buni belgilaydigan yana bir muhim jihat bor. Bu har bir hududning tuproq-iqlim şaroiti, suv ta'minoti, nav xususiyatlari va agrotexnika tadbirlari muddatini hisobga olgan holda töğri qaror qabul qila oladigan malakali agronom salohiyatidir.

Şu nuqtai nazardan, "Yangi agronom" dasturi agrar ta'limni amaliyot bilan boğlaş, yoş mutaxassislarni bevosita işlab çiqariş jarayoniga jalb etişning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Dastur doirasida Toşkent davlat agrar universitetidan jami 100 nafar talaba va magistrant iştirok etib, Jizzax, Sirdaryo va Toşkent viloyatlarining ilğor xöjaliklarida amaliyot ötamoqda.

Talabalar Mirzaçöl, Arnasoy, Döstlik, Oqoltin, Mirzaobod, Bekobod, Oqqörğon, Yuqori Çirçiq va Quyi Çirçiq tumanlarida tajribali paxta teriş maşinasi operatorlari hamda işlab çiqariş mutaxassislari bilan birgalikda amaliy faoliyat olib bormoqda. Ayniqsa, Oqoltin tumanidagi "Bobur" agroklasteri, Mirzaçöl tumanidagi "Mirzaçöl" klasteri va "Ipak yöli" hududi, Yuqori Çirçiq tumanidagi "Innovatsiya va texnologiyalar joriy qiliş markazi" MÇJ va Quyi Çirçiq tumanidagi "Global Textile Group" klasteri bilan hamkorlik dasturning amaliy mazmunini boyitmoqda. Misol uçun, Mirzaçöl tumanidagi paxta maydonlari talabalar uçun muhim amaliy tajriba maydoniga aylandi. Bu yerda ular mavsumda foydalanilayotgan 46 ta zamonaviy paxta teriş maşinasi, 300 ta transport vositasi va 500 ta tirkama texnik holatini baholab, iş jarayonini taşkil etiş, agrotexnika talablariga rioya qiliş, mehnat va texnika xavfsizligini ta'minlaş kabi kasbiy könikmalarni özlaştiryapti. Bunday tajriba nazariy bilimlarni mustahkamlaş bilan birga, bölajak mutaxassislarda mustaqil qaror qabul qiliş va yuzaga kelgan muammolarga amaliy yeçim topiş qobiliyatini rivojlantiradi.

Dasturning yana bir muhim jihati talabalar amaliyotining raqamli monitoringini taşkil etişdir. Har bir iştirokçi böyiça alohida elektron ma'lumotlar şakllantirilib, unda talabaning ta'lim yönalişi va guruhi, biriktirilgan klaster, texnika va operator, amaliyotni boşlaş sanasi, iş maydoni, işlagan soatlari, terilgan maydon hajmi, yiğilgan paxta miqdori, fotosuratlar hamda geolokatsiya ma'lumotlari qayd etiladi.

Bu tizim amaliyotni şunçaki davomat yoki hisobot bilan baholaşdan voz keçib, talabaning haqiqiy faoliyati va erişgan natijalarini kuzatiş imkonini beradi. Şuningdek, töplangan ma'lumotlar asosida mavsumiy hisobotlarni şakllantiriş, muammolarni aniqlaş va ta'lim jarayonini takomillaştiriş mumkin.

Universitetda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar paxtaçilikdagi dolzarb muammolarga innovatsion yeçim topiş va zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etişga qaratilgan. Jumladan, universitet professori Munisa Saidovaning ilmiy tadqiqotida şörlaniş şaroitida gözaning çidamliligini oşirişda kremniy asosidagi preparatlar, xususan, "Aminosid-Silicon"ning samaradorligi ilmiy asoslab berilgan. Dala tajribalarida uşbu preparat qöllanilganda paxta hosildorligi nazoratga nisbatan 20,6 foiz oşgan. Uşbu tadqiqot natijalari özining ilmiy-amaliy ahamiyati, innovatsion yondaşuvi hamda yuqori samaradorligi bilan nafaqat Özbekistonda, balki AQŞning Arizona, Texas kabiştatlari va boşqa hududlarida amaliyotga joriy etilganini qayd etiş örinlidir.

Bu kabi ilmiy izlanişlar universitetimizda agrar sohaning turli yönalişlarida izçil olib borilmoqda.

Agrar ta'lim oldidagi vazifalar

Bugun agrar sohadagi özgarişlar oliy ta'lim muassasalari oldiga ham yangi talablarni qöymoqda. Zamonaviy agronom yoki muhandis raqamli texnologiyalardan foydalaniş, zamonaviy texnikani boşqariş, resurslar sarfini tahlil qiliş, agrotexnika jarayonlarini rejalaştiriş va işlab çiqarişdagi muammolarga ilmiy asoslangan yeçim taklif eta oliş lozim.

Şu sababli universitetda ta'limni işlab çiqariş bilan uyğunlaştiriş izçil davom ettirilmoqda. Bunda davlatimiz rahbarining tegişli qarorlari dasturilamal bölmoqda. Zero, ularda "yangi agronomlar" avlodini tayyorlaş, buning uçun ta'limni işlab çiqariş bilan boğlaş va dual ta'limni rivojlantiriş vazifalari belgilab berilgan. Şundan kelib çiqib, Toşkent traktor zavodi, Agrosanoatni rivojlantiriş agentligi, Örmon va yaşil hududlarni köpaytiriş, çöllanişga qarşi kuraşiş agentligi, "Leo Garden", "Agro Light Business", "Multi Flora", "PROMEAT", "Safia Cafe & Bakery" "Power Electric Group" hamda agroklasterlar bilan yölga qöyilgan hamkorlik aloqalari talabalarning turli işlab çiqariş muhitlarida amaliy tajriba orttirişiga xizmat qilmoqda.

Bizningça, dual ta'limning eng muhim natijasi – talaba öqiş davrining özida mehnat bozori talablarini anglaşi, işlab çiqariş madaniyatiga moslaşişi va kasbiy salohiyatini namoyon etişidadir. Bu esa bitiruvçilarning iş bilan ta'minlanişiga va korxonalarning malakali kadrlarga ehtiyojini qondirişga xizmat qiladi.

Qişloq xöjaligining kelajagi raqamli texnologiyalar bilan uzviy boğliq. Dronlar, sun'iy yöldoş ma'lumotlari, sensorlar, geoaxborot tizimlari va sun'iy intellekt imkoniyatlari agrar işlab çiqarişda qarorlarni aniq ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilişga şaroit yaratmoqda. Paxtaçilikda bu texnologiyalar ekin holatini masofadan kuzatiş, suv va öğitga ehtiyojni baholaş, zararkunanda va kasalliklarni erta aniqlaş, texnika harakatini rejalaştiriş hamda hosildorlikni prognoz qilişda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada resurslardan maqsadli foydalaniş, ortiqça xarajatlarni qisqartiriş va işlab çiqariş samaradorligini oşiriş imkoniyatlari kengayadi. Biroq texnologiyaning özi yetarli emas. Undan samarali foydalaniş uçun raqamli vositalarni tuşunadigan, ma'lumotlarni tahlil etadigan va ular asosida töğri agrotexnologik qaror qabul qila oladigan kadrlar zarur. Demak, agrar ta'limning vazifasi ham özgarmoqda: endi mutaxassisni faqat mavjud texnologiyalardan foydalanişga emas, balki yangi yeçimlarni özlaştiriş va amaliyotga tatbiq etişga ham tayyorlaş talab etiladi.

Sir emas, har qanday tarixiy natija keyingi taraqqiyot uçun yangi vazifalarni belgilaydi. Şu ma'noda, paxtaçilikda bu yil qölga kiritilgan tarixiy natijalar yangi marralar sari ilhomlantirmoqda. Boşqaça aytganda, kelgusi yilda örtaça hosildorlikni yanada oşiriş maqsad qilingan. Bunga erişiş uçun sifatli uruğlik, suv va energiya tejovçi texnologiyalar, zamonaviy texnika, raqamlaştiriş va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalaniş zarur, albatta.

Toşkent davlat agrar universiteti jamoasi uçun bu vazifalar, avvalo, malakali va raqobatbardoş kadrlar tayyorlaş, ta'lim sifatini oşiriş, ilmiy tadqiqotlarni işlab çiqariş ehtiyojlariga yönaltiriş hamda agrar tarmoq bilan hamkorlikni mustahkamlaş mas'uliyatini anglatadi. Zero, paxtaçilikdagi bugungi muvaffaqiyatlar zamirida inson kapitali, ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar uyğunligi yotibdi. Şu bois biz kelajakda paxtaçilikdagi hosildorlik va samaradorlikni nafaqat yangi texnika yoki agrotexnologiyalar, balki ularni yaratadigan, boşqaradigan va amaliyotga tatbiq etadigan yangi avlod mutaxassislarining bilimi va salohiyati bilan ham ölçaşimiz zarur. Agrar sohada bu bilim va innovatsiyalar asosida taşkil etilsagina muvaffaqiyatlar tobora mustahkamlanib, amaliy natijalar barqaror taraqqiyot manbaiga aylanadi.

Narzullo OBLOMURADOV,
Toşkent davlat agrar universiteti rektori.

YANGILIKLAR *xabarlar*
TAFSILOTLAR

Karmanada yirik sanoat loyihasi

Karmana tumanida Özbekiston texnologik metallar kombinati tomonidan "TMK Çemicals" zamonaviy sulfat kislota işlab çiqariş korxonasi barpo etilmoqda. Umumiy qiymati 54,5 mln. AQŞ dollariga teng bölgan mazkur investitsiyaviy loyiha hududning sanoat salohiyatini oşiriş, mahalliy işlab çiqarişni rivojlantiriş va muhim kimyoviy xomaşyoga bölgan ehtiyojni ta'minlaşda alohida ahamiyat kasb etadi.



– Korxona 6 gektar maydonda joylaşgan bölib, yiliga 500 ming tonna yuqori tozalikdagi sanoat sulfat kislotasi işlab çiqariş quvvatiga ega böladi, – deydi Karmana tumani hokimining innovatsion rivojlaniş masalalari böyiça örinbosari Ötkir Tillayev. – Yana bir muhim jihati: energiya samaradorligi. Işlab çiqariş jarayonida hosil böladigan issiqlik energiyasidan qayta foydalaniş orqali yiliga 152 mln. kVt·soat elektr energiyasi işlab çiqariş imkoniyati yaratiladi.

Ayni kunlarda korxonada tayyorlanadigan mahsulotlarni taşiş va yetkazib beriş jarayonlarini samarali taşkil etiş maqsadida 2,5 kilometrlik yangi temir yöl tarmoği barpo qilinmoqda. Loyihada işlab çiqariş jarayonlarini töliq avtomatlaştiriş, zamonaviy texnologiyalarni joriy etiş hamda ekologik, ijtimoiy va korporativ boşqaruvning ESG tamoyillariga rioya qilişga alohida e'tibor qaratilgan.

"TMK Çemicals" korxonasining işga tuşirilişi sanoat korxonalarining muhim kimyoviy reagentlarga bölgan ehtiyojini mahalliy işlab çiqariş hisobidan qanoatlantiriş, importga qaramlikni kamaytiriş va yangi texnologik zanjirlarni şakllantirişga xizmat qiladi.

Loyiha doirasida 240 dan ziyod doimiy iş örinlari yaratilişi közda tutilgan.

Temur EŞBOYEV
(«Xalq sözi»).

Ğoliblar xorijga boradi

Arnasoyda an'anaga aylanib borayotgan tuman hokimi kubogi doirasidagi fan olimpiadalari yoşlarning bilim va iqtidorini qöllab-quvvatlaş, ularning salohiyatini röyobga çiqarişga xizmat qilmoqda. Uşbu bellaşuv ğoliblari ota-onalari, ustozlari va maktab direktorlari hamrohligida Xitoy, BAA, Turkiya, Misr kabi davlatlarga sayohatga yuborilmoqda.

– Dunyoda biror sohani matematikasiz tasavvur qiliş qiyin, – deydi matematika yönalişida birinçi örinni qölga kiritgan Bekzod Farhodov. – Men bu fanni çuqurroq örganişga harakat qilyapman. Musobaqada har bir öquvçi öz salohiyatini körsatişga, bilimi orqali yuqori örinni olişga intildi.

Loyiha ilk bor 2025-yilda taşkil etilib, öquvçilarning ingliz tili böyiça bilimlari sinovdan ötkazilgan edi. Yoşlar örtasida katta qiziqiş va talabdan kelib çiqib, joriy yilda unga matematika fani ham qöşildi. Musobaqada dastlab mingga yaqin öquvçi iştirok etgan bölsa, bu yil ular soni tört ming nafardan oşib ketdi.

Arnasoy tajribasining ibratli jihati şundaki, bilimga çanqoq yoşlar uçun eng katta rağbat – mehnati qadrlanayotganini his etiş, erişgan yutuqlari ularga yangi marralar sari yöl oçayotganini körişdir.

Tolibjon ERGAŞEV
(«Xalq sözi»).

Sohibkordagi tropik manzara

Mamlakatimiz qişloq xöjaligida issiqxona şaroitida meva-sabzavot yetiştiriş jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biriga aylanib bormoqda. Bugungi kunda köplab oilalar şu faoliyat bilan şuğullanib, yaxşigina daromad topyapti.



Qamaşi tumanining Sohibkor mahallasida yaşovçi Töxta Oçilov ham bir neça yil avval 30 sotix maydonda issiqxona barpo etib, unga turli sitrus mevalar köçatlarini ötqazgan edi. Bugun bu yerdagi özига xos tropik manzara kişining bahridilini oçadi. Eng muhimi, oila byudjetiga salmoqli daromad keltirmoqda.

– Ayni paytda limon, apelsin, mandarin va şu kabi tropik iqlimga mos bölgan mevalarni yetiştiryapmiz, – deydi T. Oçilov. – Issiqxona şaroitida bularning barçasidan yaxşi hosil oliş mumkinligini tajribada sinab kördik. Sitrus mevalarning köçatlarini yetiştirib, aholiga yetkazib berişga ham bizni ilhomlantirmoqda.

Bugungi kunda birgina Sohibkor mahallasining özida 300 dan ortiq oilalar issiqxonalarda meva-sabzavot yetiştirmoqda. Şu tariqa aholi bandligini ta'minlaş, bozorlarga sara mahsulotlar yetkazib beriş va aholi farovonligini oşiriş uçun zamin yaratilgan.

Jahongir BOYMURODOV
(«Xalq sözi»).

Şanxayda bölib ötgan 9-Xitoy xalqaro import mahsulotlari körgazmasi (CIIE – 2026)da mamlakatimizda işlab çiqarilgan tovarlar ham namoyiş etildi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq sözi
2026-yil 11-noyabr

Konstitutsiya:



ERKIN HAYOT VA YORQIN KELAJAK KAFOLATI

HEÇ KIMDAN KAM EMASLIGIMNI YANA BIR BOR HIS ETDIM

“Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bölgan bolalarni boqişni, tarbiyalaşni, ularning ta’lim olişini, soğlom, tölaqonli va har tomonlama kamol topişini ta’minlaydi, şu maqsadda xayriya faoliyatini rağbatlantiradi”.

Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasidan.

Oğabek XUDOYBERDIYEV (Çiroqçi tumani):



– Mehr – gul, mehr – xazina. Mehrli inson esa eng mö’tabar odam. Zero, mehrni qömsamaydigan, unga ehtiyoj sezmaydigan inson bölmasa kerak bu yoruğ olamda.

Gap şundaki, töqqiz yoşimda ota-onamdan ayrilganman. Şundan söng qarindoşlarim meni öz qaramoğiga oldi. Rosti, avvaliga ota-onamni soğinsam-da, yetimlikning haqiqiy qiyinçiliklarini his etmagan ekanman. Yoşim ulğaygani sari ota-onaning qadri yanada köproq sezildi. Ertaga nima qilaman, kimga suyanaman degan xavotirdan ba’zan uyqum qoçardi. Ammo maktabni bitirişim bilan yolğiz emasligimni sezdim – hukumatimizning ğamxörligidan bahramand böldim.

Katta hayot ostonasidayoq davlatimiz yelka tutdi: Prezidentimizning “Yetim bolalar va ota-ona qaramoğidan mahrum bölgan bolalarni davlat tomonidan qöllab-quvvatlaşning yangi tizimini joriy etiş çora-tadbirlari töğrisida”gi qarori asosida universitetga davlat granti asosida öqişga qabul qilindim. Uylangaç esa davlatimiz rahbari yana meni siyladi: tuman markazida yangi qurilgan köp qavatli imoratdan barça jihozlari bilan 2 xonali uyli böldim. Hatto haydovçilik guvohnomasi oliş uçun öqiş xarajatlariga ham davlat tomonidan kömak körsatildi.

Şukrki, bugun heç kimdan kam emasman. Bir inson erişişi mumkin bölgan hamma imkoniyatlarga egaman: oliy ma’lumotliman, kasbim, oilam, uy-joyim bor. Kelajagimdan esa könglim töq. Buning uçun meni katta hayot boşidayoq qöllab-quvvatlagan, öz yölimni topişimda imkoniyat yaratib bergan davlatimizga rahmat.

FUQAROLIK MAQOMI – ULUĞ BAXT

“Davlat öz faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanişini ta’minlaş maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oşiradi”.

Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasi.

Salima XOLDOROVA, mehnat faxriysi (Navoiy viloyati):



– Inson uçun eng katta baxt – tinç-osuda mamlakatda yaşaş, özi xohlagan kasb bilan şuğullaniş, farzandlarni öqitib, komil inson qilib tarbiyalaş.

Asli Qirğizistonning Bozorqörğon tumanida tuğilganman. Örta maktabdan söng Toşkent davlat pedagogika universitetida öqidim. Taqdir ekan, özbekistonlik yigit bilan oila qurdim. Oradan yillar ötdi. Pasport almaştiriş muddati kelib mutasaddi idoradan Özbekiston fuqarosi emasligim haqida hujjat berilganida, oçiği hayratdan qotib qoldim...

Heç esimdan çiqmaydi: öşa kezlar tuğilgan joyimda ham, Özbekistonda ham fuqaroligim yöqligi bois ota uyimga boriş ming bir azob edi. Siyosiy huquqlar haqida-ku, gapirmasam ham böladi.

Peşonamizda yaxşi kunlar bor ekan, Prezidentimizning “Özbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qiliş töğrisida”gi Farmoni çiqib men va yana bir guruh kişilar fuqarolik maqomini olişdek uluğ baxtni qölga kiritdik. Bu quvonçni baham köriş maqsadida tuğilgan yurtim Bozorqörğonga qanot çiqarib uçdim.

Otam pasportimni qöliga olib, yoş boladek suyungani hali-hanuz köz öngimda. Öşanda qöni-qöşnilar Özbekistondagi özgarişlar-u çegaralarning oçilişi, qirğiz va özbeklarning bir-biriga iliq munosabatlari haqida sörardi. Men esa javob berişga ulgurolmasdim...

Bugun jonkuyar va vatanparvar bölmoq bizning şu yurt oldidagi ham farzimiz, ham qarzimiz. Çunki Özbekiston – bizning borliğimiz, kelajagimiz.

TA’RIFGA SIĞMAS QULAYLIKLAR

“Har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yöqotganda, işsizlikda, şuningdek boquvçisini yöqotganda va qonunda nazarda tutilgan boşqa hollarda ijtimoiy ta’minot huquqiga ega”.

Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasidan.

Jumamurat TOREMURATOV (Xöjayli tumani):



– Istang davolaning, istang sanatoriyga boring, 60 yildan ziyod mehnat qilib tumanimiz iqtisodiyotini mustahkamlaşga hissa qöşdingiz, hurmat-u e’zozga loyiqsiz deydi tumanimiz kattalari. Kasaba uyuşmasi, nuroniylar jamğarmasi, mahalla faollari tez-tez xabar olib turibdi. Bunday e’tibor köngilni toğdek kötaradi. Ayniqsa, keyingi yillarda Prezidentimizning qoraqalpoğistonliklarga mehr-u muhabbati, yoşlar uçun yaratib berayotgan qulayliklari ta’rifga siğmaydi. E-he, nimasini aytay...

Ilgari Nukusning qiyofasi ovulnikidan farq qilmasdi. Bugun özgarişlar salmoği ulkan. Önlab köp qavatli uylar, yangi madaniy ma’rifiy, ta’lim dargohlari paydo bölgan. Uç-tört oy şaharga tuşmagan kişining özgarişlardan boşi aylanib qolişi ham heç gapmas. Mutlaqo e’tibor yöqligidan nomi ham öçib ketay deb qolgan Möynoqni ayting. Kemalar qabristoni sifatida körilgan bu göşa bugun katta şahar, Yangi Özbekiston qiyofasini özida aks ettirgan sölim göşa. Şunday bölişini ön yil avval kim öylabdi deysiz. Xudoga şukr deyman. Rahmatlar aytaman Prezidentimizga.

Heç kimning köngli öksimaydigan, huquqi buzilmaydigan, bunga davlat kafolat beradigan zamon keldi. Faqat adolatga tayanib halol mehnat qiliş, vatanparvar böliş, yoşlarni töğri yölga boşlaş kerak xolos. Bugun ana şu niyatda ovulimiz hayoti bilan boğliq obodonçilik işlaridan çetda turganimiz yöq, faolman.

IRODASI KUÇLI INSON QIYINÇILIKNI YENGA OLADI

“Mehnatga layoqatsiz va yolğiz keksalar, nogironligi bölgan şaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boşqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidadir”.

Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasidan.

Sirojiddin JALOLIDDINOV, ikkinçi guruh nogironi (Toyloq tumani):



– Nogironlik guruhining belgilanişi, bu hayotdan töxtaş degani emas. Inson kimgadir yuk bölmasdan mehnat qilişi, maqsad sari intilgan holda yaşaşi kerak. Özimdan qiyos: mehnatni sevgan insondan dard ham çekinadi.

Asosiysi, hukumatimiz meni şunday paytda yolğizlatib qöymadi. Özingiz ayting, keçagina e’tibordan çetda turgan odam bugun davlatning kömagi bilan ön nafardan oşiq odamlarning rözğoriga baraka kiritadigan tadbirkorga aylansa, quvonmay böladimi?

Toyloq tumanining Örtaqişloq mahallasida yaşayman. Ikkinçi guruh nogironiman. Mahalla oqsoqolining tavsiyasi bilan 70 sotix yer olgunça zerikişdan yuragim tars yorilay derdi. Uyga kiraman, köçaga çiqaman, hali u yerim, hali bu yerim oğriydi. Qarangki, yerli bölgaç ğayratim jöş ura boşladi. Bugun malinaning “Gusariya” navidan ekib, tomçilatib suğoriş orqali hosildorlikni 40 tonnaga çiqarişga intilyapmiz. Işçilarim 10 nafar, yillik daromad esa 200 million söm.

Daromadim oşib, rözğorim obod bölgaç mahallaning eng kerakli odamiga aylandim, nogironligim ham esimdan çiqib ketdi. Quvonarlisi, keçagina menga rahmi kelib qaraganlar bugun, hatto oldimga maslahat sörab kelyapti...

Taqdirimdagi oğir sinovlarga qaramay mehnat qildim va jamiyatda öz örnimni mustahkamladim. Albatta, bunda davlatimizning qöllab-quvvatlovi va himoyasi muhim ahamiyat kasb etdi. Men hamişa şu yerda tuğilganimga, insonparvar jamiyatda yaşayotganimga şukr deyman.

IQTIDOR RÖYOBIGA RAĞBAT

“Davlat uy-joy qurilişini rağbatlantiradi va uy-joyga bölgan huquqning amalga oşirilişi uçun şart-şaroitlar yaratadi”.

Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 47-moddasidan.

Samandar JUMAYEV, Özbekiston şaxmat federatsiyasi Sirdaryo viloyati hududiy bölimi ijroçi direktori:



– Men çekka qişloqda, oddiy oilada voyaga yetganman. Onam uy bekasi, otam şaxmat murabbiyi. Bolaligimdan oilamizga moddiy jihatdan kömakdoş bölsam deb ulğaydim. Şu bois yoş bölsam-da, Guliston şahridagi xususiy maktablarda şaxmat fanidan dars bera boşladim. Rosti, hayotim öşa davrda ança qiyin keçgan. Çunki uydan işxonaga boriş uçun 50 kilometr yöl bosib ötişga töğri kelardi. Şunça masofaga har kuni qatnaşning özi bölmaydi. Yozning jazirama issiği, qişning izğirin sovuği bor deganday. Qiynalib ketganimda, qaniydi Guliston şahrida bir xonali bölsa-da, uyim bölsa. Yöl azobidan qutulsam deb orzu qilardim.

Prezidentimizning şu yil 24-fevraldagi “Aholini uy-joy bilan ta’minlaş işlarini jadallaştiriş va köp kvartirali uylar qurilişini samarali taşkil etiş çora-tadbirlari töğrisida”gi Farmoniga köra menga ham davlat tomonidan subsidiya ajratildi. Şu kömak tufayli gulistonlikka aylandim, şaharda boşpanali böldim. Uzoq yillik orzuim röyobga çiqib, bugun mendan baxtli odam yöq. Ayni çoğda esa Özbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining sirtqi ta’lim talabasiman.

Darvoqe, hayotimdagi yana bir muhim buriliş 2025-yil noyabr oyida yuz berdi. Menga şaxmat federatsiyasining viloyat bölimi ijroçi direktori lavozimida faoliyat yuritiş taklif etildi. Yigirma yoşimda bunday mas’uliyatli vazifa işonib topşirilgani men uçun şaraf. Bu yurtimizda yoş iqtidor egalariga yaratilgan ulkan imkoniyatlar mevasidir.

YANGI ÖZBEKISTON – ULKAN IMKONIYATLAR MAMLAKATI

“Davlat yoşlarning şaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinişini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol iştirok etişini rağbatlantiradi”.

Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79-moddasidan.

Jonibek BAXTIYOROV, Şveysariyadagi HSLU universiteti talabasi, «El-yurt umidi» jamğarmasi stipendiati:



– Buyuk mutafakkirlar zamini bölgan Özbekiston farzandlari bugungi kunda ham yuksak bilim va salohiyatini dunyoga namoyon etmoqda. Özimdan qiyos: “SEAMO” xalqaro olimpiadasining bronza, “AMC” xalqaro olimpiadasining kumuş medalini qölga kiritganman. “Cambridge A-level” imtihonlarida barça fanlardan eng yuqori – “A” bahosini olganimda, hatto amerikalik tengdoşlarim qoyil qolişgan...

Bilasizmi, matematika va şaxmat göyo egizak. Bu sport turi menga nafaqat mantiqiy fikrlaş, balki sabr, qat’iyat, vaziyatni töğri baholaş va har bir qaror uçun mas’uliyat hissini örgatdi. Muntazam maşğulotlar va izlanişlar natijasida uç karra Özbekiston ğolibi, Markaziy Osiyo çempioni böldim. Bugun sport ustaligiga nomzodman.

“El-yurt umidi” jamğarmasi stipendiati böliş zimmamga katta mas’uliyat yukladi. Jahon kezdim, musofirlik dunyoqaraşimni kengaytirdi, döstlar orttirdim. Ba’zan turli davlatlardan bölgan tengqurlarimga Özbekiston, yoşlar uçun berilayotgan imkoniyatlar haqida gapirib berganimda, havasdan közlari yonib ketadi. Rosti, bugun yurtimizdagi yangiliklarga qiziqiş katta.

Davlatimiz rahbari iqtidorli yoşlarning boşini silayapti, ular uçun barça eşiklarni oçib beryapti. Özbekiston yoşlari esa heç kimdan kam emas. Yaqinda Butunjahon sayohat va turizm kengaşining yillik yiğilişida iştirok etib, sözga çiqqanimda yuragim hapriqib ketdi. Boisi bu kengaşda şu paytgaça birorta hamyurtimiz sözga çiqmagan ekan...

Maqsadim – “El-yurt umidi” jamğarmasi tomonidan bildirilgan işonçni oqlaş va Özbekiston yoşlari qanday salohiyat egalari ekanini yana bir bor dunyoga namoyon etiş.

TA’LIM – YÖLIMIZNI YORITUVÇI ÇIROQ

“Har kim ta’lim oliş huquqiga ega.

Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va şakllari, davlat va nodavlat ta’lim taşkilotlari rivojlanişini ta’minlaydi”.

Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasidan.

Muslimaxon UBAYDULLAYEVA, Jalaquduq tumanidagi 11-umumta’lim maktabi öquvçisi:



– Har gal ota-onam bilan ularning maktab davridagi hayoti haqida suhbatlaşsak, dalada keçgan xotiralarini eslaşadi. Aytişlariça, yerdan çigit unib çiqqanidan to tizza baravar qor yoqquniça daladan kelişmagan ekan. Bunday şaroitda maktablarda ta’lim sifati haqida gap bölişi mumkinmi?

Şularni öylarkanman, bugungi kunimizga şukronalar aytaman. Hozir hammasi boşqaça. Tongda uyğonganimizdan boşlab to uyquga ketgunimizga qadar faqat ta’lim olişimiz uçun barça şart-şaroit bor. Maktabimizda asosiy darslardan taşqari qöşimça soatlar, fan tögaraklari taşkil etilgan. Yakka tartibdagi maşğulotlarni afzal biluvçilar uçun repetitor xizmatlari bor. Faqat qunt bilan ilm çöqqilarini egallaşimiz kerak xolos.

Özimga kelsak, vaqtni behuda ötkazganim yöq. Xalqaro IELTS imtihonida 8 ball, SAT imtihonida esa 1530 ball töpladim. Xulosam şuki, inson öz oldiga qat’iy bir maqsadni qöysa, şunga intilsa, albatta, erişadi. Ayniqsa, tinçlik-xotirjamlik barqaror bölgan yurtimizda.

Kelgusida köplab yoşlar singari dunyoning eng maşhur ilm dargohlarida ta’lim olmoqçiman. Ana şunda, nasib etsa ona Vatanimiz taraqqiyotiga hissa qöşa oladigan yetuk mutaxassis sifatida iş boşlayman.

HUNARDAN RIZQ UNAR

“Har kim munosib mehnat qiliş, kasb va faoliyat turini erkin tanlaş, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat şaroitlarida işlaş, mehnati uçun heç qanday kamsitişlarsiz hamda mehnatga haq tölaşning belgilangan eng kam miqdoridan kam bölmagan tarzda adolatli haq oliş, şuningdek işsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalaniş huquqiga ega”.

Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasidan.

Botirjon MAHAMATJONOV, sartaroş (Nurafşon şahri):



– Xalqimiz “Hunar – hunardan rizqing unar” deb bejiz aytmagan. Özim qiziqqan kasbim – sartaroşga şogird tuşdim. Öşa kunlari mahallamizdagi hokim yordamçisi bilan körişib qoldik. U “Yaxşisi, siz diplomli mutaxassisga aylaning, şunda mustaqil iş boşlasangiz böladi”, dedi. Bu gap ma’qul keldi va Prezidentimiz qaroriga muvofiq taşkil etilgan Kasb-hunarga öqitiş markazida 360 soatli maşğulotlarni özlaştirdim. Maxsus sertifikat va örta maxsus ma’lumotni tasdiqlovçi diplom berişdi. Özimga işonçim yanada oşdi. Hozir Örta Çirçiq tumanidagi Qaytmas mahallasida sartaroşxona oçganman. Mijoz kam emas, kunlik daromadning çöği ham şunga yaraşa.

Çindan-da, hunar egallab adaşmaganimni bugun his qilmoqdaman. Çunki örtamiyona mutaxassis bölgandan köra, hunarli böliş önğay. Bugun hayotda qanday yutuqlarga erişgan bölsam, barçasi yaxşi körgan işim tufayli. Uning ortidan hurmatga ham, e’tibor-u e’tirofga ham erişdim. Topgan pulim rözğorga baraka bölib kirmoqda. Buni ösmir ukalarimga ham takror aytişdan erinmayman. Hunarli bölsin, jamiyatda öz örnini topsin deyman-da. Va yana jiddiy ohangda takrorlayman: yurtimizda kambağal bölmasligi uçun har bir yoş öz kasbining ustasi bölişi şart!

Men öz hunarim tufayli yurtimizga nafim tegayotganidan, şu el, şu mahalla ahli bilan hamjihatlikda mehnat qilayotganimdan baxtiyorman.

«Xalq sözi».

Özbekistonda mahalliy maişiy texnika xaridi uçun 18 foizli iste’mol kreditlari ajratilişi rejalaştirilmoqda.

Amaliyotdan mahorat sari:

KASBIY TAYYORGARLIKNING YANGI BOSQIÇI

Oliy ta’limning bugungi asosiy vazifasi bitiruvçi diplomni qölga olgan kuniyoq iş boşlay oladimi-yöqmi degan savolga javob berişdir. Aniqroq aytganda, sifatli ta’lim orqali talabada amaliy könikma şakllanadimi?

Toşkent davlat iqtisodiyot universitetida bu savollarga javoban dual ta’lim orqali nazariya auditoriyada, amaliyot esa mahallada yoki korxonada yondaşuvi joriy etildi.

Ta’lim

Ta’kidlaş joizki, bugun nafaqat mamlakatimiz, balki dunyo oliy ta’limi oldida turgan umumiy vazifa ta’lim mazmunini mehnat bozori talablari bilan uyğunlaştirişdan iborat. Iş beruvçilar bitiruvçilarning nazariy tayyorgarligiga tayangan holda ularning real mehnat jarayoniga tezroq moslaşişini kutmoqda.

Tan oliş kerak, oliy ta’lim tizimida öquv rejalarida nazariy maşğulotlar uluşi hamon ustun. Amaliyot köp hollarda qisqa muddatli bölib, talabalarni öqitiş va bilimini baholaşda iş beruvçilar iştirokini kengaytiriş zaruratini yuzaga keltirmoqda. Rasman işlayotgan talabalarning mehnat faoliyatini öquv jarayoni bilan uyğunlaştiriş ham köplab oliygohlar uçun dolzarb masaladir. Dual ta’lim elementlari aynan şu masalalarga tizimli yeçim sifatida qaralayotir.

Mustahkam qonunçilik – yuksak natijalar asosi

Mamlakatimizda dual ta’limni joriy etiş uçun zarur huquqiy asos yaratilgan. 2025-yil 16-yanvardagi “Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni taşkil etiş çora-tadbirlari töğrisida”gi Vazirlar Mahkamasining qarori va Prezidentimizning şu yil 29-sentyabrdagi “Oliy ta’limda dual ta’lim şaklida kadrlar tayyorlaş tizimini takomillaştiriş çora-tadbirlari töğrisida”gi Farmoni bu boradagi işlarni yangi bosqiçga olib çiqdi.

Uşbu hujjatlarga köra dual ta’lim – nazariy qismi oliy ta’lim taşkilotida, amaliy qismi esa korxonada, ya’ni bevosita iş joyida ötkaziladigan ta’lim jarayoni. Qoida tariqasida talaba haftada kamida ikki kun nazariy maşğulotlarni universitetda, qolgan kunlari işlab çiqariş bilan boğliq amaliy qismni korxonada ötaydi. Jarayon universitet, korxona va talaba örtasida tuziladigan uç tomonlama şartnoma asosida taşkil etiladi.

Boşqaça aytganda, dual ta’lim dasturi amaliyot muddatini şunçaki uzaytiriş emas. U öquv rejasi, öquv dasturlari (modullar), öquv va işlab çiqariş amaliyoti dasturlarini bir tizimga birlaştirgan, talabaning kasbiy könikmalarini iş joyida şakllantirişga qaratilgan yaxlit jarayonlar majmuidir.

Aytiş joizki, universitetda dual ta’lim yagona andoza asosida emas, balki beş model orqali taşkil etilmoqda.



Birinçisi, haftalik almaşinuv modeli. Talaba haftaning beş kuni universitetda, bir kuni hamkor korxonada böladi (“5+1”) yoki bu nisbat “4+2” şaklida taşkil etiladi. Ya’ni amaliy dars maşğulotlari haftaning bir yoki ikki kuni kadr buyurtmaçisi bölgan hamkor taşkilot bazasida taşkil etilgan kafedra filialida ötkaziliş amaliyoti yölga qöyilgan.

Ikkinçisi, dual ta’limga yönaltirilgan mustaqil ta’lim modeli. Talabalar mahallalarga biriktirilib, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlaniş böyiça qöşimça imkoniyatlarini örganiş, kambağallikni qisqartiriş, iş örinlarini yaratiş, tadbirkorlikni rivojlantiriş, aholi daromadlarini oşiriş, ösiş zaxiralarini aniqlaş böyiça amaliy takliflar işlab çiqişda iştirok etmoqda.

Uçinçisi, korporativ öquv-amaliy markaz modeli. Bunda universitet hududida faoliyat yuritayotgan hamkor korxona yoki taşkilot bölinmasi, simulyatsion öquv laboratoriyalarida amaliyotçi mutaxassislar tomonidan dars maşğulotlari olib borilyapti.

Törtinçisi, iş joyiga integratsiyalaşgan model. Rasman işlayotgan talabaning mutaxassisligi böyiça iş faoliyati ta’limning amaliy qismi sifatida hisobga olinib, universitet va iş beruvçi tomonidan birgalikda baholaş amaliyoti yölga qöyilgan. Bugungi kunda 1 281 nafar rasman işlayotgan 3-4 bosqiç talabalari uçun şu model joriy qilingani iş va öqişni uyğunlaştiriş imkonini bermoqda.

Beşinçisi, dual ta’limga asoslangan amaliyot modeli. Talabalar hamkor korxona, taşkilotlarga biriktirilib, malakaviy amaliyot ötaş çoğida korxonani iqtisodiy rivojlantiriş zaxiralarini aniqlaş, muammolari yeçimini işlab çiqişda iştirok etadi.

Modellarning asosiy afzalligi moslaşuvçanligidir. Har bir ta’lim yönalişi öz xususiyati va hamkor korxonaning imkoniyatlaridan kelib çiqib ma’qul modelni tanlaydi. Natijada korxonadagi amaliyot uluşini öquv vaqtining 17 foizidan 47 foizigaça yetkaziş imkoni tuğilmoqda. Asosiy maqsad – universitet 4-kurs talabalarining 100 foizini, 3-kurs talabalarining kamida 50 foizini dual ta’limga qamrab oliş.

Bilim va tajriba tutaşgan maydon

Joriy yilning “Mahallani rivojlantiriş va jamiyatni yuksaltiriş yili” deb e’lon qilingani universitet taşabbusiga alohida mazmun bağişlaydi. Dual ta’lim qamrovini oşiriş yönalişlaridan biri, bu – bitiruvçi kurs talabalarini mahallalarga biriktiriş böldi.

Dastlabki bosqiçda Toşkent şahrida doimiy yaşovçi 704 nafar kunduzgi ta’lim bitiruvçi kurs talabalari poytaxtimizning 12 tumanidagi 585 ta mahallaga biriktirildi. Ular hokim yordamçisi, mahalla bankiri va mahalla soliqçisi yonida iqtisodiy ösiş nuqtalarini aniqlaş, yangi taşabbuslarni ilgari suriş, mahallalarni rivojlantiriş böyiça amaliy takliflar işlab çiqişda iştirok etayotir. Keyingi bosqiçda esa bu jarayon barça viloyatlarni qamrab oladi.

> **Dual ta’lim – nazariy qismi oliy ta’lim taşkilotida, amaliy qismi esa korxonada, ya’ni bevosita iş joyida ötkaziladigan ta’lim jarayoni. Qoida tariqasida talaba haftada kamida ikki kun nazariy maşğulotlarni universitetda, qolgan kunlari işlab çiqariş bilan boğliq amaliy qismni korxonada ötaydi. Jarayon universitet, korxona va talaba örtasida tuziladigan uç tomonlama şartnoma asosida taşkil etiladi.**

Mazkur yondaşuvning asosiy ğoyasi oddiy, ammo çuqur mazmunga ega. Ya’ni iqtisodçi bölib yetişayotgan yoşlar nazariyani auditoriyada emas, hayotning özida – mahalla darajasida sinovdan ötkazişi lozim.

Talabaning mahalladagi amaliyoti esa tört bosqiçda olib borilmoqda. Xususan, örganiş bosqiçida mahalla aholisi, bandlik holati, tadbirkorlik subyektlari va infratuzilmasi böyiça ma’lumotlarni yiğiş hamda tizimlaştiriş e’tiborga olinadi. Çeklovlarni aniqlaş bosqiçida ösişga tösqinlik qilayotgan omillarni, jumladan, infratuzilma, moliyaviy resurslar va malaka yetişmovçiligini baholaş nazarda tutiladi.

Zaxiralarni izlaş yönalişida foydalanilmayotgan yer va binolar, mehnat resurslari, istiqbolli tadbirkorlik yönalişlarini aniqlaş, takliflar işlab çiqiş bosqiçida esa mahalla raisi va tuman hokimligi bilan kelişilgan, amalga oşiriş mumkin bölgan çora-tadbirlarni tayyorlaş közda tutilmoqda.

Talaba mahalladagi amaliyoti natijasi böyiça hududning aniq muammolarini bartaraf etişga, uning kelgusi rivojlanişini belgilaşga qaratilgan master-reja işlab çiqadi. Bundan taşqari, talaba biznesni röyxatga oliş tadbirlarida ham iştirok etayotir. E’tiborlisi, bu yondaşuvda talaba real muammo ustida işlaydi, nazariy bilimlarini amaliy sinovdan ötkazadi, mahalla esa mustaqil tahliliy baho oladi, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantiriş böyiça asoslangan ma’lumot oliş imkoniga ega böladi.

Dual ta’limning samarasi, avvalo, hamkor taşkilotlarning iştirokiga boğliq. Bugun universitetning 3-4-kurs talabalari kadrlar buyurtmaçilari bazalarida taşkil etilgan 35 ta kafedra filiallarida “5+1” sxemasi asosida amaliy maşğulotlarini ötamoqda, bank-moliya va suğurta sohasi, davlat organlari hamda yirik korxonalarda amaliy könikma hosil qilmoqda. Xususan, “UNICON.UZ”da 195 nafar, Davlat aktivlarini boşqariş agentligida 47 nafar, “Öztöqimaçiliksanoat” korxonalarida 40 nafar, “Aloqabank”da 25 nafar talaba amaliyot ötayapti.

Hamkorlar safida Kambağallikni qisqartiriş va bandlik vazirligi, Rahbar kadrlarni baholaş markazi, Raqobatni rivojlantiriş qömitasi, Milliy statistika qömitasi, soliq va bojxona idoralari bor. “Özbektelekom”, “UZPOST”, “Özbekiston temir yöllari”, Navoiy kon-metallurgiya kombinati kabi yirik korxonalar, “Grant Thornton”, “Kreston” singari auditorlik kompaniyalari, köplab tijorat banklari hamda savdo tarmoqlari ham universitet bilan faol hamkorlikda işlayapti.

Toşkent davlat iqtisodiyot universitetida dual ta’lim rasmiy amaliyotdan real kasbiy tayyorgarlikka ötiş vositasiga aylanmoqda. Bu tizimda talaba diplom bilan birga iş tajribasi va iş beruvçining bahosiga ega böladi, korxona esa özига kerakli kadrni talabalik davridayoq tarbiyalaydi. Pirovardida bitiruvçilarning işga joylaşiş muddati qisqarib, oliy ta’lim bilan mehnat bozori örtasidagi masofa kamayadi. Zero, iqtisodiyotning raqobatbardoşligi, avvalo, malakali kadrlar salohiyatiga boğliq.

Sultonali MEHMONOV,
Toşkent davlat iqtisodiyot universiteti
Öquv işlari böyiça birinçi prorektori,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

TIL – TAFAKKUR QUDRATI, TENGSIZ EHTIYOJ

Muayyan tilning ijtimoiy hayotdagi mavqei nimaga boğliq? Uning obrösi oşişi uçun nima qilmoq lozim?

Har qanday milliy zabonning ijtimoiy hayotdagi mavqei odamlarning unga boğliqlik darajasidan kelib çiqadi. Ya’ni odamning yaşaşi, işlaşi, orzu-istaklarini röyobga çiqarişi uçun şu lisonning kerakliligi darajasiga boğliq. Qaysi tilni bilmasdan ham öqişga kiriş, yaxşi işga joylaşiş, lavozimda kötariliş, iqtisodiy mustaqillikka erişiş mumkin bölsa, öşa til asta-sekin yöqolib boradi.

Muşohada

Taassufki, bugun özbek tiliga munosabatda ayni şu jarayon közga taşlanmoqda. Biror işga kirişda nomzodlar iş beruvçi tomonidan sinaladi, ya’ni uning salohiyati, qobiliyati, tezkorligi, mantiqiy fikrlaşiga baho beriladi. Ammo ular davlat tili bölgan özbek zaboni böyiça imtihondan ötkazilmaydi, qonun-qoidalari söralmaydi. Hatto Toşkent davlat özbek tili va adabiyoti universitetiga öqişga kirişda ham nomzodlarning inglizça sözlaşuvi borasidagi bilimi qadrli sanaladi. Özbekistonda joylaşgan davlat-nodavlat taşkilotlarida işlaş uçun özbek tilini biliş şart emas. Özbek tili oliy öquv yurtiga kiriş imtihoni uçun vaj bölib qolyapti.

Oddiygina qonunlarni yaxşi bilmasligimiz, ulardan foydalanmasligimiz, qonun böyiça emas, kayfiyatimiz böyiça iş qilişimizga ham til borasidagi bilimlarimizdagi nuqsonlar sabab. Çunki töğri va yaxşi yaşaşning kafolati bölgan qonunlarni nafaqat qöllaş, balki uni darrov tuşunib oliş qiyin. Ba’zi rasmiy hujjatlar tili ğaliz, uslubiy notöğri qurilgan, ularda ravonlik yetişmaydi. Töğri, rasmiy til köça jargonidan farq qilişi şart. Odam örtoği bilan gaplaşgan tilida qonunni ham “öqib” ketavermasligi lozim. Lekin qonunni işlatadigan jihat uning oson tuşunilişi, yengil öqilişi, tez yodda qolişi.

Poytaxtdan tortib bir dona ham boşqa millat vakili yaşamaydigan eng çet hududlargaça “Мы откръlis”, “Dom prodayotsya”, “Open”, “Close” va hokazo yozuvlar keng tarqalgan. Endi iş boşlayotgan tadbirkorlar-ku özbekça nom deyarli qöymaydi. Qöysa ham ikkinçi qismi “Limited” singari özga tilda böladi. Buning sababi nimada deb öylaysiz? Özbek andişali xalq. Hamişa boşqalarga noqulaylik tuğdirmaslikka, özgalarning rohatini buzmaslikka, ovora qilmaslikka intiladi. Öşa eng çekka hududlardagi begona sözlarning sababi ham şu



xususiyatimizdan kelib çiqqan. Birorta rus yoki ingliz kelib qolsa, tuşunmay qolmasin, degan maqsadda yoziladi. Lekin “har qanday xorijlik rasmiy tili özbek tili bölgan davlatga kelgaç, uning tilini tuşunişga urinsin, bu davlatga nisbatan hurmatni bildiradi” degan fikr xayolga ham kelmaydi.

Özbek tilining qadri va huquqiy himoyasi masalasiga davlat tilining qadri va huquqiy himoyasi sifatida yondaşiş şart. Şundagina vaziyat önglanadi. Davlat tili – rasmiy maqom. Uni hurmat qiliş majburiy. Bunga rioya etmaganlar jazoga tortiladi. Faqat şunday yöl bilan davlat tilining maqomi kötariladi. Şundagina har bir özbekistonlik nega “oçiq” deyiş mumkin bölgan joyda “otkrьito” yo “open” deb yozişim kerak, deb öylay boşlaydi.

Olimlarning aniqlaşiça, inson miyasi har bir tuşunçani tasvir bilan “yozib” olarkan. Masalan, köklam deganda ongimizda kömkök maysalar, yomğir deganda tomçi şodalari, qon deganda qizil rang tasviri namoyon böladi. Tilning milliy tafakkurni şakllantirişdagi beqiyos ahamiyati ham şunda. Kişi sözlayotganida miya “sandiğidan” suratlarni olib, tasvir hosil qilib boraveradi. Şu ma’noda, ravon va yuksak mantiqli sözlar inson aqlini çarxlaydi, uni ijodkorlikka, bunyodkorlikka undaydi. Afsuski, ijtimoiy hayotimizdagi bugungi qurama til yurtdoşlarimiz, ayniqsa, yoşlar ongida qanday manzara hosil qilayotganini endi tasavvur etavering.

Davlat tili mavqeini oşirişning yana bir yöli – uni yaxşi yaşaş, orzularga erişiş kafolatiga aylantiriş. Ayni paytda deyarli barça yoşlar, örta va katta avlod ham ingliz tilini mukammal örganişga harakat qiladi. Bu yölda vaqti hamda pulini ayamaydi. Çunki kelajagini qurişning eng işonçli va samarali yöli şu ekanini aniq biladi. Özbek tilini örganiş ham mamlakatimizdagi har bir inson uçun ana şunday hayotiy ehtiyojga aylanmas ekan, davlat tilida töliq va töğri gapira oladigan, yoza oladiganlar faqat kamayaveradi.

Ança oldin xorij ijtimoiy tarmoqlarida “Marhamat qilib seni oliyjanoblik bilan öz bağriga olgan, pul topişing uçun iş bergan davlat tilida gapir” deb yozilgan surat tarqalgandi. Bu juda örinli talab. Özbekistonda ham har bir kişi ongida “Yaşaş uçun davlat tilini bilişim şart” degan qarorni şakllantiriş va mustahkamlaş kerak. Koreyaga işga boriş uçun koreys, AQŞ, Angliyaga boriş uçun ingliz, Olmoniyaga boriş uçun olmon, Yaponiyada işlaş yo öqiş uçun yapon tilidan imtihon topşiramiz. Nega Özbekistonda öqişimiz yo işlaşimiz uçun davlat tilini biliş darajamiz böyiça imtihon topşirmaymiz? Özbek tili oila davrasida, maişiy darajada qolib ketayotganining boisi şunda emasmi? Ijtimoiy ehtiyojga aylanmagan heç narsa ijtimoiy hayotda yaşab qola olmaydi, ya’ni uning jamiyatga keragi bölmaydi.

Hammamiz Vatanimizni yaxşi köramiz. Şunday ekan, uning davlat tiliga ham hurmatimiz yuksak bölişi şart. Biz esa öz xohişimiz bilan hayotimizni ğarblaştiryapmiz, tilimizni esa ğariblaştiryapmiz. Tilimizni biz özimiz ikkinçi darajaga tuşirsak, qadrlamasak, özgalardan buni qanday talab qila olamiz?!

Albatta, hukumat miqyosida özbek tilining ham ona tili, ham davlat tili sifatidagi maqomi, sofligi, qudrati, ijtimoiy-siyosiy mavqeini oşiriş yölida amaliy işlar qilinmoqda. Ammo öqişga kiriş, demakki, yaxşi yaşaşning eng samarali yöli – özbek tilini emas, ingliz tilini puxta biliş ekan, holat yaxşilanmaydi. Tilimiz yöqolib boraveradi. Tili yöq millat esa millat emas.

Muhayyo YÖLDOŞEVA,
filologiya fanlari nomzodi,
dotsent.

QADAMJODAN TARALAYOTGAN ZIYO



Milliy tafakkur va ma’naviyatimiz rivoji, umumbaşariy taraqqiyot ravnaqiga benihoya katta hissa qöşgan olim-u fuzalolar, diniy hamda dunyoviy ilm egalari sanalgan köplab uluğ siymolarimiz bor. Ularning ilmiy-ma’rifiy merosi, falsafiy qaraşlari yoşlar ongu şuuriga yurtparvarlik, adolatparvarlik, mehr-u oqibat, odamiylik, yaxşilik, halollik, mehnatsevarlik kabi ezgu fazilatlarni singdiradi, odamlarni xayrli işlarga çorlaydi. Buxorodagi Xoja Bahouddin Naqşband qadamjosi ana şunday dillarga yoruğlik olib kiruvçi muqaddas ziyoratgohlardan biridir.

Meros

– Sobiq sinfdoşlar bilan bu yerga keliş orzuimiz edi, – deydi andijonlik mehnat faxriysi Feruza Bobojonova. – Şukr, niyatimizga yetdik. Ruhimiz yengil, közimiz ravşan tortdi. Yurtimizdagi tinçlik-xotirjamlikka köz tegmasin, deya duolar qilyapmiz.

Majmuadagi obodonçilik, quriliş-ta’mirlaş işlari, neça yildirki, töxtagani yöq. Anjumanlar zali, ilmiy markaz, mehmonxonalar qurildi. Yon-atrofda boğ-u roğlar paydo böldi, yölaklar gulga burkandi. Davlatimiz rahbari Şavkat Mirziyoyev taşabbusi bilan bu yerdagi bunyodkorlik işlari yangi bosqiçga kötarildi. Çunonçi, saqlanib qolgan eski fotosuratlar, çizmalar, vaqf hujjatlari asosida qadimiy Toqi Miyona darvozasi hamda madrasa qurildi. Natijada yuz yildan söng qadamjoning asosiy kiriş qismi yana ziyoratçilar uçun xizmat qila boşladi. Mahallaning 10 kilometrdan ziyod yöli asfaltlandi, köça çekkasida tun-u kun faoliyat körsatuvçi fayzli jamoatçilik maskanlari barpo etildi. Çorçinor va Rabotipoyon qişloqlarida muqobil energiya manbalari asosida işlovçi zamonaviy yoritiş moslamalari örnatilgan. Bunday obodlikni ilgari tasavvurga siğdirib bölmasdi.

– Bahouddin Naqşband bobomiz “Şamga öxşagin, toki hammaga ravşanlik bağişla, özing esa qoronğida böl”, deya lutf qilganlar, – deydi yana bir suhbatdoşimiz, falsafa fanlari doktori, professor Gulçehra Navrözova. – Mazkur hikmat qandaydir ma’noda bu uluğ zotning hayot mazmuniga aylangan edi. U özining insonparvarlik ğoyalari, qaraşlari bilan islom dunyosini zabt etdi. Naqşbandiya tariqatiga asos soldi.

Uluğ ajdodimizning ögitlari – halol mehnat bilan rözğor tebratmoq, elga sadoqat, odamlar taşvişida yaşaş, isrofgarçilikka yöl qöymaslik, iymonli, diyonatli böliş, neça asrlarki, avlodlar uçun yölçi yulduz. Bularning barçasi ziyorat bahona ongu şuurimizga singmoqda. Binobarin, dunyo e’tirof etgan Naqşbandiya tariqatining asosini “Köngling Allohda, qöling işda bölsin!” şiori hamda ön bir qoida taşkil etadi.

> **Bugun şarif şahar millionlab sayyohlarni – qadriyatlarga, ezgulikka oşno kişilarni öz bağriga çorlamoqda. Indoneziya, Pokiston, Malayziya, Turkiya singari qator davlatlardan kelgan fuqarolarning buyuk ajdodimiz mangu qönim topgan qadamjoni ziyorat qilişayotganini köriş kişiga faxr bağişlaydi. Majmua yevropalik sayyohlarda ham katta qiziqiş uyğotmoqda. Viloyat turizm boşqarmasi mas’ul xodimi B. Töxsanovning ta’kidlaşiça, joriy yilning töqqiz oyida viloyatga 2 mln. 600 mingdan ziyod xorijiy, 4 mln. 600 ming nafardan köproq mahalliy sayyohlar kelgan.**

– Yurtingizdagi obodlik, tarixiy obidalar, samimiy insonlar, tansiq taomlar tahsinga sazovor, – deydi angliyalik sayyoh Karolin Ezbek. – Biz bu yerda tasavvuf tarixi, Naqşbandiya tariqati töğrisida ham köpgina ma’lumotlarga ega böldik. Milliy va diniy qadriyatlarni köz qoraçiğidek asrab-avaylab kelayotgan xalqingizga tasannolar aytaman.

...Qadamjo tong sahardan ziyoratçilar va xorijlik sayyohlar bilan gavjum. Bu yerda nafaqat özbekça, balki yapon, koreys, turk, ingliz, nemis, fransuz, arab tillaridagi sözlar ham yangramoqda. Buning sira ajablanarli joyi yöq. Negaki, Naqşbandiya ta’limoti zamirida millati, dini, tilidan qat’i nazar, insonni aziz biliş, odamlar köngliga mehr-şafqat, muruvvat uruğini soçiş, ehtiyojmandlarga yordam qölini çöziş, ular qalbida ertangi kunga umid uyğotiş singari oliyjanob maqsadlar yotadi. Şu bois ham bu ta’limot yuraklarga yaqin va mazkur göşadan taralayotgan ziyo aslo sönmaydi.

Istam IBROHIMOV
(«Xalq sözi»).

Sönggi ön yilda mamlakatimiz elektrotexnika sanoatiga 2 milliard dollar investitsiya kiritilib, 413 ta yangi işlab çiqariş quvvati işga tuşirildi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq sözi
2026-yil 11-noyabr

BILIMLI AVLOD – BARQAROR TARAQQIYOT TAYANÇI

Ta’limga ajratilgan investitsiya – kelajakka yönaltirilgan sarmoya. E’tibor bering, yangi qurilgan zavod beş-olti yilda özini oqlaşi mumkin, sifatli ta’lim olgan, puxta tayyorgarlikka ega mutaxassis esa qariyb qirq yil davomida iqtisodiyotga qiymat yaratadi.

Nuqtai nazar

Aytiş joizki, iqtisodiy ösişning ikkita asosiy manbai bor, ya’ni köproq resurs jalb qiliş yoki mavjud resurslardan yanada samarali foydalaniş. Birinçi yöl köproq işçi kuçi, yer, energiya hamda xomaşyodan foydalanişni öz içiga olsa, ikkinçi yöl mehnat unumdorligini oşirişni nazarda tutadi. Bu esa bilim, malaka, innovatsiya va ilğor texnologiyalar orqali ta’minlanadi. Aynan şu nuqtada ta’limning iqtisodiyotdagi örni yanada yaqqol namoyon böladi. Jahon banki ma’lumotlariga köra, rivojlangan mamlakatlarda milliy boylikning 60 – 70 foizini inson kapitali taşkil etadi.

Demak, zamonaviy iqtisodiyotda boylikning asosiy qismi yer ostidagi tabiiy resurslar yoki zavodlarida emas, balki insonlarning bilimi, tajribasi hamda kasbiy mahoratida mujassam böladi.

Mamlakatimizda belgilangan yettita milliy dasturning birinçisi aynan inson kapitalini rivojlantiriş, bilim va malakani taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvçi kuçiga aylantirişga qaratilgani ham bejiz emas. Çunki mehnat unumdorligini oşiriş haqidagi har qanday jiddiy iqtisodiy mulohaza, oxir-oqibat, ta’lim sifati, mutaxassis tayyorlaş va inson salohiyatini röyobga çiqariş masalasi bilan çambarças boğlanadi.

Ta’lim va mehnat bozori

Şu örinda ta’lim qamrovidagi özgarişlarga e’tibor qaratsak. Sönggi yillarda oliy ta’lim bilan qamrov 9 foizdan 45 foizgaça, ya’ni beş barobar oşdi. Maktabgaça ta’lim qamrovi esa 27,7 foizdan 78 foizga kötarildi. Bu mamlakatimiz ta’lim tizimidagi keng kölamli özgarişlar va aholi uçun yaratilgan imkoniyatlar natijasi, albatta.

Biroq ta’lim qamrovining kengayişi bilan birga, mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoş mutaxassislar soni ham ortib boryapti. Joriy yilda oliygohlarni qariyb 320 ming nafar talaba bitirişi kutilmoqda. Har yili şunça yoşni munosib iş örinlari bilan ta’minlaş esa nafaqat ta’lim tizimi, balki butun iqtisodiyot oldida turgan muhim vazifadir.

Bu borada Ta’lim sifatini ta’minlaş milliy agentligining “Bitiruvçilar sifati indeksi” platformasi muhim ma’lumotlarni taqdim etmoqda. Unda 170 ta oliy ta’lim taşkilotining 249 432 nafar bitiruvçisi holati örganilgan. Natijalarga köra, 206 951 nafar bitiruvçi yoki umumiy körsatkiçning 83 foizi iş bilan band. Ularning işga joylaşişi uçun örtaça 3 oy 5 kun vaqt talab qilingan.

Bir qaraşda, bu ijobiy körsatkiç. Ammo masalaning ikkinçi tomoni ham bor, ya’ni 41 mingdan ortiq bitiruvçilar hali iş topa olmagan. Eng muhimi, iş bilan band, deb qayd etilgan bitiruvçilarning qançasi aynan öz mutaxassisligi böyiça faoliyat yuritayotgani haqida ham öylab köriş kerak. Çunki ta’limning iqtisodiy samaradorligi faqat diplom oliş yoki işga joylaşiş bilan çeklanmaydi. Mutaxassisning olgan bilimini amaliyotda qöllay olişi, öz kasbi böyiça işlaşi hamda mehnat bozorida barqaror örin egallaşi ham juda muhim.



Nazarimizda, bu boradagi nomutanosiblikning uçta asosiy sababi mavjud. Ya’ni ta’lim dasturlari mehnat bozori talablaridan ortda qolmoqda. Zamonaviy iqtisodiyotda kasb va mutaxassisliklarga qöyiladigan talablar ikki-uç yil içida özgarişi mumkin. Ayrim öquv rejalari esa uzoq yillar davomida deyarli özgarişsiz qolib ketyapti. Natijada bitiruvçi nazariy jihatdan tayyorgarlikka ega bölsa-da, iş beruvçi talab qilayotgan yangi könikmalarni yetarliça egallamagan bölişi mumkin.

Qolaversa, yoşlar tanlayotgan kasblar bilan iqtisodiyotga zarur bölgan mutaxassisliklar örtasida tafovut bor. Abituriyent köpinça kasb tanlaşda ota-onasi yoki yaqinlarining maslahatiga tayanadi. Biroq ularning tasavvuri köp hollarda ön yil avvalgi mehnat bozori talablari bilan şakllangan böladi. Holbuki, bugun iqtisodiyotga qanday mutaxassislar kerakligi hamda ertaga qaysi kasblarga talab ortişi haqida aniq ma’lumotga ega böliş zarur.

Bugun amaliy könikmalar nazariy bilimlar bilan hamqadam bölişi zarur. Bitiruvçi muayyan atama, qoida yoki nazariyani yaxşi bilişi mumkin, ammo real iş jarayonida aniq vazifani mustaqil bajarişda qiynaliş holatlari ham kuzatiladi. Raqamli könikmalar böyiça ötkazilgan tadqiqotlar ham işga joylaşiş natijalari formal diplomdan köra amaliy kompetensiyalarga tobora köproq boğlanib borayotganini körsatmoqda. Natijada davlat ham, oila ham ta’limga sarflagan mablağining ma’lum bir qismini iqtisodiy natija sifatida qaytara olmayapti. Demak, endi asosiy e’tiborni ta’lim qamrovini oşiriş bilan bir qatorda, uning natijadorligiga e’tibor qaratiş muhimdir.

Integratsiyani kuçaytirişga qaratilgan yangi yondaşuv

Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – mehnat bozori talablariga javob beradigan, zamonaviy bilim va amaliy könikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlaş. Çunki oliy ta’lim muassasalarida berilgan nazariy bilimlar amaliyot bilan uyğunlaşmasa, bitiruvçilarning işga joylaşişida muayyan qiyinçiliklar yuzaga kelişi mumkin. Şu bois ta’lim muassasalari bilan iş beruvçilar örtasidagi hamkorlikni kuçaytiriş, talabalarni hali öqiş jarayonidayoq kelajakdagi kasbiga yönaltiriş muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda bu borada muayyan mexanizmlar işga tuşirilgan. Xususan, Vazirlar Mahkamasining tegişli qarori bilan iş beruvçilarning 2-kursdan yuqori talabalarning şartnoma tölovlarini qoplab berişi va ularni öqişni tamomlagandan söng işga qabul qilişi tartibi belgilangan. Uşbu mexanizm doirasida xodimlari soni 50 nafardan ortiq yoki investitsiya loyihasi qiymati kamida 1 million dollar bölgan taşkilotlar buyurtmaçi sifatida iştirok etişi mumkin. Şuningdek, bitiruvçini işga qabul qilgan tadbirkorlarga imtiyozli kredit beriş amaliyoti ham yölga qöyilgan.

Bu ta’lim va işlab çiqariş örtasidagi hamkorlikni mustahkamlaşga qaratilgan muhim yondaşuv. Ammo uning samarasini yanada oşiriş uçun ayrim jihatlarga ham e’tibor qaratiş maqsadga muvofiq.

Jumladan, mehnat bozori prognozi ta’lim buyurtmasining asosiga aylanişi kerak. Qaysi sohada beş yildan keyin qançа mutaxassisga ehtiyoj bölişi oldindan hisoblanmasa, qabul kvotalarini belgilaş köp hollarda taxminlarga asoslanib qolaveradi. Şu bois ta’lim muassasalari, iş beruvçilar hamda mas’ul taşkilotlar mehnat bozorining örta va uzoq muddatli prognozlari asosida işlaşi lozim. Bundan taşqari, iş beruvçilar ta’lim dasturlarini şakllantirişda bevosita qatnaşişi kerak. Uç tomonlama şartnomalar faqat talabaning şartnoma tölovini qoplaş bilan çeklanib qolmasligi ham juda muhim. Iş beruvçi öquv rejasi, amaliy maşğulotlar, malaka amaliyoti va mutaxassisga qöyiladigan talablarni belgilaşda ham iştirok etsa, ta’lim natijalari mehnat bozori ehtiyojlariga yaqinlaşadi.

> ***Sönggi yillarda oliy ta’lim bilan qamrov 9 foizdan 45 foizgaça, ya’ni beş barobar oşdi. Maktabgaça ta’lim qamrovi esa 27,7 foizdan 78 foizga kötarildi. Bu mamlakatimiz ta’lim tizimidagi keng kölamli özgarişlar va aholi uçun yaratilgan imkoniyatlar natijasi, albatta.***

Qolaversa, kasb-hunar ta’limining nufuzini oşiriş bugungi kun talabidir. Iqtisodiyotga ayrim hollarda oliy ma’lumotli menejerdan köra malakali payvandçi, operator yoki texnolog köproq kerak böladi. Bu haqiqatni munosib iş haqi, mehnat şaroiti hamda kasbiy ösiş imkoniyatlari orqali namoyon etiş lozim. Çunki har bir kasbning jamiyat va iqtisodiyotda öz örni, öz qiymati bor.

Şu bilan birga, umrbod ta’lim oliş tizimini rivojlantiriş kerak. Bugun bir marta olingan diplom insonning qirq yillik mehnat faoliyati davomidagi barça ehtiyojini qoplay olmaydi. Texnologiyalar yangilanadi, kasblarga talab özgaradi, turli yönalişlar paydo böladi. Şuning uçun qayta tayyorlaş hamda malaka oşiriş kurslari ixtiyoriy qöşimça imkoniyat emas, balki kasbiy hayotning tabiiy qismiga aylanişi zarur.

Yana bir muhim jihat, ta’limni moliyalaştiriş natijadorlik bilan boğlanişi şart. Bitiruvçilarining iş bilan ta’minlaniş körsatkiçlari, kasbiy faoliyati barqarorligi va mehnat bozoridagi talab yuqori bölgan ta’lim dasturlarini rağbatlantiriş mexanizmlarini kengaytiriş maqsadga muvofiq. Bu yerda gap ta’limni oddiy bozor munosabatlariga böysundiriş haqida emas, aksinça, ajratilayotgan mablağning jamiyat hamda iqtisodiyot uçun berayotgan natijasini hisobga oliş haqida bormoqda.

Uzoq muddatli va işonçli investitsiya

Tabiiy boyliklar bir kun kelib tugaydi, bozor konyunkturasi özgaradi, texnologiyalar eskiradi. Ammo bilimli va malakali xalq har qanday şaroitda yangi imkoniyatlarni izlab topiş, muammolarga yeçim yaratiş hamda taraqqiyot yölini davom ettiriş salohiyatiga ega.

Resurslarga tayangan iqtisodiyot bilan bilim va innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyot örtasidagi asosiy farq ham şunda, ya’ni birinçisi mavjud boyliklardan foydalanişga tayansa, ikkinçisi, inson tafakkuri, mehnati hamda yaratuvçanlik imkoniyatlari orqali yangi boylik yaratadi.

Mutaxassislar ta’kidlaganidek, inson kapitaliga sarmoya kiritiş kelajakka investitsiya qiliş demakdir. Aholisining katta qismini yoşlar taşkil etadigan mamlakat uçun bu şunçaki çiroyli ibora emas. Bu demografik imkoniyatni iqtisodiy dividendga aylantirişning muhim şarti ham.

Ma’lumotlarga qaraganda, joriy yil uçun Davlat byudjetidan ta’lim sohasiga 100,3 trillion söm ajratilgan. Bu bugungi avlodning ertangi kunga yönaltirayotgan sarmoyasi, desak, mubolağa emas. Uning samarasi bir yilda yoki bitta ta’lim dasturi muddatida töliq namoyon bölmasligi mumkin. Ammo bu investitsiya ma’lum muddatdan söng, albatta, natijalar beradi. Şu bois ta’limni faqat byudjet xarajati sifatida emas, balki mamlakatning iqtisodiy mustaqilligi, raqobatbardoşligi hamda uzoq muddatli taraqqiyotini ta’minlaydigan strategik investitsiya sifatida baholaş kerak.

Eng muhimi, ajratilayotgan har bir mablağ insonning bilimi, kasbiy mahorati, mehnat unumdorligi va iqtisodiyotdagi real natijasiga aylanmoqda. Bu jarayonlarda ta’lim qamrovi bilan bir qatorda sifat, amaliy könikma, bandlik mezonlariga ham ustuvor ahamiyat beriş ayni zarurat.

Hasan SOBIROV,
Xalqaro Nordik universiteti
Iqtisodiyot va biznesni boşqariş kafedrasi mudiri,
iqtisodiyot fanlari böyiça falsafa doktori (PhD), dotsent.

YANA BIR BIZNES MAJMUA

Farğona şahridagi “Iftixor” mahalla fuqarolar yiğini hududida “Yuksaliş Group” kompaniyasi tomonidan dunyoning megapolis şaharlari tajribasi asosida “Farğona-1” yirik investitsiya loyihasini amalga oşiriş rejalaştirilgan. Umumiy qiymati 290 mln. dollar bölgan mazkur loyiha doirasida 7 gektardan ortiq maydonda 2 700 dan ziyod xonadonlarga möljallangan 16 qavatli turarjoy binolari, dam oliş maskanlari, avtoturargohlar hamda turli xizmat körsatiş şoxobçalari barpo etiladi.



Intiliş

Bundan taşqari, uç qavatli zamonaviy savdo-köngiloçar majmuasi va ikkita 20 qavatli biznes markazi quriladi.

Loyihaning yana bir muhim jihati şundaki, boşqaruv va xizmat körsatiş jarayonlarida raqamli texnologiyalar, robototexnika hamda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan unumli foydalaniş közda tutilgan.

– Yaqin istiqbolda savdo-köngiloçar majmuasiga jahonga maşhur 80 ta xalqaro brendni jalb etiş maqsad qilingan, – deydi “Yuksaliş Group” kompaniyasi asosçisi Anvar Temirov. – Zamonaviy biznes markazlari esa tadbirkorlar va investorlar uçun qulay iş muhitini şakllantiriş, özaro hamkorlikni kengaytiriş hamda yangi biznes taşabbuslarini rivojlantirişga xizmat qiladi.

Botir MADIYOROV
(«Xalq sözi»).

«RAHBAR KUBOGI»: UÇ KUNLIK BELLAŞUV

Prezident, ijod, muhandislik, ixtisoslaştirilgan maktablar öquvçilari örtasidagi “Rahbar kubogi” sport musobaqalarining joriy yilgi respublika bosqiçi Sirdaryo viloyatida ötkazildi.



Ertaning umidi

– An’anaviy tus olgan uşbu tadbir öquvçilarning sportga qiziqişini yanada oşiradi, – deydi Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi direktori, senator Pokiza Ahmedjanova. – Öquvçilarning sportning biror turi bilan muntazam şuğullanişi uçun esa har jihatdan qulay şaroit va imkoniyatlar mavjud. Bu yilgi musobaqaga mezbonlik qilgan bizning maktabimizdagi zamonaviy şaroitlarni bunga misol keltiriş mumkin.

E’tirof etiş lozimki, sport musobaqalari doirasidagi madaniy tadbirlar döstlik va özaro hamjihatlikni uluğlagani bilan ahamiyatli böldi. Uç kun davom etgan bellaşuvlar Ixtisoslaştirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi öquv dargohlari öquvçilarining faqat bilim olişgagina emas, sportga ham iştiyoqi balandligini körsatdi. Musobaqalar şaxmat hamda minifutbol sport turlari böyiça taşkil etildi.

Yakuniy natijalarga köra, şaxmat böyiça öğil bolalar örtasidagi musobaqada Toşkent şahridan Jahongir Komilov, qizlar örtasidagi bellaşuvda esa samarqandlik Şarofatbegim Saydullayeva birinçi örinni qölga kiritdi. Poytaxtimizdagi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslaştirilgan maktab jamoasi minifutbol böyiça birinçi örinni egallab, “Rahbar kubogi” sohibi böldi.

Ğoliblarga Özbekiston Respublikasi Ta’lim va ilm-fan vazirligi huzuridagi Ixtisoslaştirilgan ta’lim muassasalari agentligining diplomi hamda qimmatbaho sovğalari tantanali topşirildi.

Ahmadali ŞERNAZAROV
(«Xalq sözi»).

VIRTUAL OLAMNING KÖRINMAS TAHDIDLARI

Alouddinning sehrli çiroği haqida bilmagan odam bölmasa kerak. Ta’bir joiz bölsa, bu “sehrli çiroq” bugun hammaning qölida bor – smartfon. Uning ham yuzini silab tursangiz bas, eh-he… nima karomatlar körsatmaydi, deysiz. Qölimizdagi bir qaraşda şu oddiy matoh nafaqat çeksiz imkoniyatlar eşigi, balki inson taqdirini ostin-ustun qilib yuboruvçi xavfli qurolga aylanişi ham mumkin. Yaqinda hamma havas bilan qaraydigan bir oilaning binoyidek farzandi haqida şov-şuv tarqaldi. Internet orqali qandaydir qimor öyiniga 100 ming AQŞ dollari tikib yutqazib qöyibdi. Oqibatda minib yurilgan maşinalar, işlab turgan dökonlar sotildi. Bunday misollar esa, afsuski, oz emas...

Mulohaza

Bugun hayotimizni internetsiz tasavvur qilib bölmaydi. Bu imkoniyat işimizda, turmuşimizda turli qulayliklar berayotgani barobarida oqilona va ehtiyotkorona foydalanmaslik oqibatida köngilsiz hodisalarga ham yöl oçmoqda. Misol uçun, kiberjinoyatçilikni olaylik, hozirda uning 60 dan ortiq turlari mavjud. Ayniqsa, şaxsiy ma’lumotlarni öğirlaş, sun’iy intellekt orqali ovoz va yuz qiyofasini öxşatiş, zararli fayllarni tarqatiş tobora avj olyapti.

– Rostini aytsak, internet bilan boğliq muammolar köplab xonadon eşigini qoqib kirib kelyapti. Ilgari yoşlar nima bilan band, kim qayerga ketyapti – köz öngimizda edi. Hozir esa ular göyo uyda-yu ammo global tarmoqlararo qayerlarda “yuribdi”, bilmaysiz, – deydi Qaşqadaryo viloyatining Yakkaboğ tumanidagi “Tatar” MFY raisi Toşpölat Berdiyev. – Şuning uçun mahallada faqat ogohlantiriş bilan çeklanmay, yoşlar örtasida oçiq muloqotlar ötkazyapmiz. Ularda imom-xatib, psixolog, tajribali ustozlar bilan birgalikda “Internetda kimga işoniş mumkin, kimga yöq?” degan savollarga javob beryapmiz. Çunki yoşlarning huşyorligini oşirsak, ularda internetdan töğri foydalaniş könikmasini şakllantirsak, könglimiz tinçiydi.

Uç farzandning onasi bölgan suhbatdoşimiz Habiba Jamolova esa şunday deydi:

– Ilgari “bolam uyda, demak, xavfsiz” deb xotirjam yurardim. Keyin tuşundimki, telefon ham köçadan kam emas ekan. Farzandim öqişdan haydalişiga oz qoldi – seriallar körişga mukkasidan ketib, dars qilmay qöygani uçun! Öğlim bilan suhbatlaşib, nimalar körayotganini sörab, birga muhokama qila boşladik. Taqiqlaganimizda emas, otasi bilan birgalikda tuşuntirganimizda ta’sir böldi. Eng muhimi, bola ota-onasiga işonişi kerak. Agar bola savollariga uyda javob topmasa, köçadan axtaradi, internetdan izlaydi. Şu örinda, bir rivoyat esimga tuşdi. Bir yigit döstini qidirib, uning uyiga boribdi. Çaqirsa, döstining otasi çiqib kelibdi. Salom-alikdan söng yigit döstini sörabdi. Otaxon: “Falon joyda katta bir kunda bor, öğlim şuni kavlagani ketdi”, debdi. “Qaçon qaytadi?” sörabdi yigit. “Agar u kundaning atrofini kengroq olib kavlasa, işini tezda bitirib, hademay kelib qoladi. Kundaning faqat taginigina kavlab çiqarmoqçi bölsa, köp ovora böladi, hali-beri kelmaydi”, deya javob beribdi donişmand çol. Demak, ildizi çuqur ketgan har qanday muammoga yeçim topiş uçun şu masalaning atrofini kengroq olişga töğri keladi.

Şu ma’noda, virtual makondagi xavf-xatarlarni faqat “taqiqlaş”, “yopiş”, “çeklaş” orqali bartaraf etişga uriniş kundaning faqat tagini kavlaşga öxşaydi. Bunday yondaşuv qisqa muddatli ta’sir berişi mumkin, ammo muammoning ildiziga olib bormaydi. Çunki yoşlarni internetga boşlab kelayotgan sabablar: bilimga çanqoqlik, özini anglaş istagi, adolat qidirişi, jamiyatda öz örnini topiş iştiyoqi – barçasi tabiiy va qonuniy ehtiyojlardir.

Özbekona qadriyatlarimizga nazar taşlasak, bu kabi masalalarga yeçim kaliti, avvalo, oiladan boşlanişini köramiz. Oila, mahalla, maktab va OAV yoşlar ongini şakllantiruvçi asosiy kuç hisoblanadi. Ana şu halqa uzilmasa, virtual tuzoqlar ham öz kuçini yöqotadi.

Ğolib BAHROMOV
(«Xalq sözi»).

Milliy statistika qömitasi tomonidan e’lon qilingan oxirgi ma’lumotlarga köra, Özbekistonda maktabgaça ta’lim taşkilotlariga qamrab olingan bolalar soni tarixda ilk bor 2,5 millionlik dovondan oşdi.

Xalq sözi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengaşi
Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengaşi

Boş muharrir Ötkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan röyxatga olingan. Naşr indeksi – 429. Buyurtma G-1042. 17 780 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qoğoz biçimi A-2. Bahosi kelişilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab oliş uçun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qölyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilişi uçun obunani rasmiylaştirgan taşkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli çop etilişiga “Şarq” naşriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toşkent şahri,
Islom Karimov köçasi, 55-uy.
Navbatçi muharrir A. Aliqulov.
Musahhih Ş. Maşrabboyev.

“Şarq” naşriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon köçasi, 41. ÖzA yakuni – 03.50 Topşirildi – 03.55 1 2 3 4 5 6